

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI
MARKAZI

*Abdullayev B.A., Burxonxo'jayev O.M.,
Xolbo'tayeva X.E.*

UY-RO'ZG'OR
ELEKTR JIHOZLARINI
TA'MIRLASH

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

113880 ✓

«VORIS-NASHRIYOT»
TOSHKENT – 2007

*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik
birlashmlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash
tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

Taqrizchi: A. Taslimov, ToshDTU «Elektr
ta'minot» kafedra mudiri, dotsent

Ushbu o'quv qo'llanmada uy-ro'zg'or elektr jihozlarini
ta'mirlash va uni tashkil etishga oid texnologik jarayonlar, za-
monaviy asbob-uskunalar hamda kontrol o'lchov apparatura-
laridan foydalanish texnikasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.
Shuningdek, uy-ro'zg'or elektr jihozlari va mashinalarini ta'-
mirlashda mehnat xavfsizligi qoidalari bayon etilgan.

O'quv qo'llanma kasb-hunar kollejlarining «Gaz va elektr
jihozlarini ta'mirlash» yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalari
uchun mo'ljallangan.

KIRISH

Turmushda uy-ro'zg'or ishlarini mexanizatsiya-lashtirish uy xo'jaligini o'zgartirib yuboradi, uy mehnati unumdarligini oshiradi, uy-joyning sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaxshilaydi. Turmushda zamonaviy mashinalar va jihozlardan foydalanish aholining bo'sh vaqtlarini ko'paytirishga imkon beradi.

Aholining madaniy maishiy, uy-ro'zg'or va xo'jalik ishlariga mo'ljallangan buyumlarga bo'lgan extiyojini to'la qondirish maqsadida mamlakatimizda uy-ro'zg'or elektr jihozlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish, turlarini kengaytirish va sifatini oshirish tadbirlari izchillik bilan amalgalashirishga imkon beradi.

Uy xo'jaligini yuritish uslubini o'zgartirishning asosiy yo'nalishi kommunal-maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarining va firmalarining ishini kengaytirish va yaxshilash hisobiga xizmat ko'rsatishning ijtimoiy shakllariga o'tishdir. Shuningdek, aholi o'zida bo'lgan yoki ijaraga olingan uy-ro'zg'or jihozlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. Bunday sharoitlarda uy-ro'zg'or texnikasini ta'mirlash xizmatining roli ancha ortadi. Uy-ro'zg'or jihozlari majmuuning doimo yangilanib turishi, ular konstruksiyalarining murakkablashuvi va vazifasi bo'yicha turli-tumanligi uy-ro'zg'or texnicksiga xizmat ko'rsatuvchi va ta'mirlovchi maishiy xizmat xodimlarining texnik bilimini muttasil takomillashtirib borish zarurligini taqozo etadi.

Aholining uy-ro'zg'or jihozlariga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish, mehnat unumdarligini oshirish va ta'mirlash ishlari sifatini yaxshilash uchun uy-ro'zg'or ji-

hozlarini ta'mirlashning ratsional texnologik jarayonlari, zamonaviy asbob-uskunalar, mexanizatsiyalashtirish vositalari, kontrol-o'Ichov apparaturalari joriy qilinmoqda.

Aholiga qulaylik yaratish maqsadida ta'mirlashni tashkil qilish ishlarini yanada takomillashtirish va xizmat ko'rsatishning yangi turlari hamda shakllarini joriy etish, uy-ro'zg'or texnikasini ta'mirlash bo'yicha buyurtmalarni bajarish uchun:

– xizmat ko'rsatish sifatini tubdan yaxshilashga va buyurtmalarni bajarish muddatlarini qisqartirishga erishish;

– uy-ro'zg'or texnikasini ta'mirlash bo'yicha ishlab turgan firmalar, korxonalarining quvvatlaridan foydalanishni yaxshilash va yangidan ishga tushuriladigan korxonalarining quvvatidan foydalanishni normativ muddatlarda o'zlashtirish;

– ishlab turgan korxonalarни rekonstruksiya qilish va ularni texnika bilan qayta jihozlash, zamonaviy texnologik jihozlarni, kontrol-o'Ichov apparatlarini, texnik diagnoz qo'yish vositalarini o'rnatish, asosiy va yordamchi qo'l ishlarini mexanizatsiyalash, yangi maxsus texnik jihozlarni o'rnatish, jihozlarini ta'mirlanadigan korxonalarni yanada kengaytirish va moddiy texnika bazasini mustahkamlash, ularni ixtisoslashtirish va konsentrasiyalashni amalga oshirish;

– ishlab chiqarish ichra ayrim ta'mirlash bo'yicha ixtisoslashtirishni o'tkazish, aholiga maishiy xizmat ko'rsatuvchi tuman ishlab chiqarish boshqarmalari bilan kooperativ aloqalarni va ta'mirlash uchun buyurtmalarni kompleks qabul punktlari hamda maishiy xizmat uylari orqali to'plash ishlarini tashkil qilishni rivojlantirish;

– ehtiyyot qismlarga bo'lgan talabni to'la qondirishga moddiy resurslarni tejash maqsadlarida sovutish agregat-

larini, bug'latkichlarni, kondensatorlarni, uy-ro'zg'or mashinalari va jihozlarining elektr dvigatellarini industrial asosda tiklaydigan ixtisoslashtirilgan firmalar tashkil qilish;

— xizmat ko'rsatishning ilg'or shakllarini va yangi xizmat turlarini yanada rivojlantirish va joriy qilish asosida aholiga xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish va bunda quyidagi tadbirlarni ko'zda tutish zarur: uy-ro'zg'or sovitkich (muzlatkich)lari, kir yuvish mashinalari, changyutkichlar va boshqa buyumlarga xizmat ko'rsatishni kengaytirish; uy-ro'zg'or jihozlarini oldindan ta'mirlab qo'yilganlariga almashtirish; uy-ro'zg'or texnikasini ta'mirlash bo'yicha buyurtmalarni telefon va aloqa vositalari orqali qabul qilish; buyurtmani buyurtmachining ko'z o'ngida tez ta'mirlab berish; buyurtmalarning avtomatik qurilmalar bilan qabul qilib olinishini tashkil qilish; buyurtmalarni aholi uchun qulay vaqtarda ularni bajarish; korxonalarda uy-ro'zg'or texnikasining ta'mirlash sifatini boshqarish kompleks sistemasini joriy qilish zarur.

Uy-ro'zg'or texnikasini ta'mirlashning sifatini boshqarishning kompleks sistemasi (SBKS) respublika standartlari, texnik shartlari va boshqa normativ-texnik hujjatlarning talablariga muvofiq uy-ro'zg'or texnikasining ta'mirlash sifatini yaxshilashga qaratilgan aniq, izchil va o'zaro bog'liq tizim yaratilishini ta'minlaydi.

Uy-ro'zg'or texnikasini ta'mirlash korxonalarida SBKS ning asosiy vazifalari: ta'mir sifati va xizmat ko'rsatishning yuqori darajada bo'lishi, barcha ishlab chiqarish bo'limlarida ta'mirlash va xizmat ko'rsatishning erishilgan yuqori darajasini ta'minlash va shu darajani saqlab turish. Korxonalarda yoki firmalarda uy-ro'zg'or texnikasining ta'mirlash sifatini boshqarishda SBKS ning quyidagi asosiy funksiyalari amalga oshirilishi kerak:

- sifatni rejalashtirish, sifatni texnologik, moddiy-texnika, metrologik jihatdan ta'minlash;
- keladigan materiallar, ta'mirlanadigan buyumlar, ishlayotgan odamlar mehnatning sifatini nazorat qilish.

SBKS strukturasi birlashmaning uy-ro'zg'or texnikasi ta'mirida va aholiga xizmat ko'rsatishda ishtirok etuvchi hamma bo'linmalari va xizmatlarini o'z ichiga oladi.

Uy-ro'zg'or texnikasini ta'mirlash aholiga xizmat ko'rsatish sifatini boshqarishga birlashma direktori (bosh muhandisi) rahbarlik qiladi. Korxonadagi barcha xizmatlarning faoliyatini koordinatsiyalash va nazorat qilishni maxsus nazorat asosida tashkil qilingan sifatni boshqarish bo'limi (sektori, guruhi) amalga oshiradi.

Sifatni boshqarish bo'limi:

- birlashmadagi barcha bo'linmalarning ishini xizmat ko'rsatish sifatini boshqarish sohasida koordinatsiyalaydi;
- olinayotgan materiallar, ehtiyoj va komplektlovchi qismlarini ularning kelishida inspeksiya kontrolidan o'tkaziladi;
- ta'mirlangan buyumlar, qismlar va agregatlarni qabul qilib olishni nazorat qiladi;
- uy-ro'zg'or texnikasining nuqsonisz ta'mir qilinishiga oid ma'lumotlarni tahlil qiladi va ishlab chiqadi;
- korxona standart'arini ishlab chiqadi.

Uy-ro'zg'or jihozining ta'mirlanish sifatini va aholiga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish rejasи har yili ishlab chiqiladi. U reja maishiy xizmat ko'rsatishning sifat darajasini uning quyidagi uch bo'limi bo'yicha ta'minlashni ko'zda tutishi kerak: uy-ro'zg'or texnikasi ta'miri sifatini oshirish rejasи bo'yicha; xizmat ko'rsatishning tashkil qilinish darajasini oshirish rejasи bo'yicha; xizmat ko'rsatish madaniyatini takomillashtirish rejasи bo'yicha.

Uy-ro'zg'or texnikasining ta'mirlanish sifatini oshirish rejalashtirilganda tashkiliy-texnik tadbirlar ishlab chiqilib, ularda quyidagilar ko'zda tutiladi:

- ta'mirlash va xizmat ko'rsatishning yuqori sifatli bo'lishini ta'minlaydigan ilg'or texnologik jarayonlarni joriy qilish va mashina hamda jihozlardan foydalanish yo'li bilan ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasini takomillashtirish;
- ta'mirlashda zarur bo'ladigan ehtiyyot qismlari va detallar sifatini oshirish bo'yicha talablar;
- texnik hujjatlarni yaxshilash;
- texnologik tartib-qoidalarga rioya qilish, xizmat ko'rsatishning yangi turlari va xizmat ko'rsatishning ilg'or shakllarining joriy qilinishini, buyurtmalarning bajarish muddatlarini va qabul qilish tarmoqlarining amal-dagi ish rejimlarining, preyskurant narxlarining to'g'ri qo'llanilishini; shikoyatlar tushishi va matbuotda, radio hamda televideniye orqali berilgan chiqishlarni; qabul qilish salonlarining asralishi, reklamaning yo'lga qo'yilganligi va boshqalarни nazorat qilishni reglamentga solish;
- ta'mir va xizmat ko'rsatish sifatiga oid standart-larning joriy qilinishini va unga qatiy amal qilinishi bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.

Uy-ro'zg'or texnikasiga sifatli xizmat ko'rsatishga:

- oqim usulida remont qilishga, ilg'or texnologiya-ga, zamonaviy jihozlar va nazorat qilish vositalariga, uy-ro'zg'or mashinalarining oldindan tamirlab qo'yilgan detallari va qismlarining almashuv fondlaridan foydalanishga va ularning sifat darajasini garantiyalashga imkon beradigan tarzda ishlab chiqarishni konsentratsiyalash va ixtisoslanТИRISH;

- moddiy-texnika jihatidan ta'minlash, transport va asbob-uskunalar xo'jaligini tashkil qilish, jihozlar va asbob-uskunlarni ta'mirlashni o'z vaqtida va sifatini taminlash;
- mehnatni ilmiy tashkil qilishni, korxonaning dispatcherlik xizmatini joriy qilish, buyumlarni qabul qilish va topshiriqlarni yuqori darajada tashkil qilish, texnologik intizomga qatiy amal qilish;
- standartlash xizmatlarini metrologik ta'minlashni tashkil qilish, sifatini boshqarish bo'limini tuzish;
- aholiga xizmat ko'rsatishning ilg'or shakllaridan foydalanish;
- korxonani texnik jihatdan jihozlash va tayyorlash;
- ilg'or texnologik jarayonlardan foydalanish;
- xodimlarning kasbiy tayyorlanganligi;
- ratsionalizatorlik, ixtirochilik ishlarini yo'lga qo'yish;
- xodimlarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish;
- korxonada mikroiqlim yaratish, madaniyati va tozaligini oshirish yo'llari bilan erishiladi.

I- mavzu

UY-RO'ZG'OR ELEKTR JIHOZLARINI TA'MIRLASH ISHLARINI TASHKIL QILISH

Ta'mirlash — jihozlarni ish bajara oladigan holatda saqlash va tutishga qaratilgan tadbirlar majmuasidir. Uy-ro'zg'or texnikasining turli-tumanligi, sxemalarning mukammallik darajasidagi, ishlash prinsiplaridagi farqlar va konstruktiv xususiyatlari jihozning ishdan chiqishiga olib keladigan sabablarni aniqlashning to'g'ri metodikasini ishlab chiqishni talab qiladi. Jihozlarni qismlarga ajratish va ko'zdan kechirish ketma-ketligi to'g'ri tanlangandagina undagi nuqson tez topiladi va bartaraf qilinadi.

Jihoz ayrim detallari va qismlarining asta-sekin yeylimishi, ishdan chiqishi yoki ularda ko'rinxilmaydigan nuqsonlarning bo'lishi profilaktika va ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida hamda sifatli qilib o'tkazishni talab qiladi. Profilaktika ishlari (o'z vaqtida tozalab-artish, moylash, rostlash va hakozolar) jihozning ishlash muddatini ancha uzaytirishga imkon beradi.

Ta'mirlashni, ta'mir ishlari texnik xarakteristikalariga ko'ra, amaldagi preyskurantlarda ko'zda tutilmaganligiga qaramasdan, mayda, o'rtalama to'la ta'mirlarga bo'lish mumkin. Mayda ta'mirlashlar kichik buzilishlar tuzatiladi, uncha murakkab bo'limgan qismlar rostlandi; o'rtalama ta'mirdan chiqqan ayrim detallar almashtiriladi, rostlash ishlari bajariladi; to'la ta'mirda alohida qismlar almashtiriladi yoki tiklanadi, murakkab sozlash va rostlash ishlari bajariladi.

Ta'mirlash ishlarini boshlashdan oldin jihozning prinsipial sxemasi va ishlash xususiyatlari, texnik xarak-

teristikalari va ishlatish qoidalari bilan tanishib chiqish kerak. Barcha detallar va kontaktli birikmalar tuzukligini tekshirishga ko'p vaqt talab qilinadi. Shuning uchun jihozning buzuqligini topish va ishlashini tekshirish metodikasiga amal qilish kerak. Ta'mirlash ishlarini quyidagi tartibda o'tkazgan ma'qul:


- ta'mirlashga keltirilgan jihozni tashqi tomondan ko'zdan kechirish, komplektliligini tekshirish, alohida elementlardan ko'rindigan tashqi shikastlanishlarni va jihozning prinsipial sxemasidan ochiq-oydin ko'rindib turgan shikastlanishlarni aniqlash;
- nuqsonli qismni, nuqsonli qismida esa buzuq detalni yoki buzuq elementni topish;
- nuqsonlar vedomostini rasmiylashtirish, amaldagi preyskurantlarga muvofiq ta'mir ishlari hajmini aniqlash;
- buzuq detal, qism yoki ishlamay qolgan elementni tiklash, ularni tuzuklariga almashtirish;
- jihozlarni rostlash, ta'mir qilingan mashina yoki jihozga oid amaldagi davlat standartlari (DSt) talablariga muvofiq tekshirish.

Bu ketma-ketlik umumiy ko'rinishda I-sxemada keltirilgan.

Ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi shakli uy-ro'zg'or texnikasini ta'mirlash bilan shug'ullanadigan korxonalar va firmalar birlashmasidir. Bunday birlashma texnik va iqtisodiy jihatdan yagona bo'lган ishlab chiqarish majmuasidan iborat. Birlashmaga bosh (bazaviy) korxona yoki firma boshchilik qiladi va uning tarkibiga uy-ro'zg'or texnikasini ta'mirlaydigan kichik firmalar kira-di, bu firmalar alohida mustaqil bo'linma tarzida ishlaydi.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi masalasi hal qilishda ishlab chiqarishni tashkil qilish formalari va metodlariga alohida e'tibor beriladi. Uy-ro'zg'or

Ta'mirlash ishlarini o'tkazish ketma-ketligi



texnikasini ta'mirlash uchun ishlab chiqarishni tashkil qilishning takomillashtirilgan metodlari konsentratsiyalash va ixtisoslashtirish hisoblanadi.

Uy-ro'zg'or jihozlarini ta'mirlovchi birlashmalar ishlaringning xarakteri jihatidan sanoat ishlab chiqarishga yaqinlashib, ishlab chiqarish quvvatlaridan maksimal foydalanishi, fan, texnika, texnologiya yutuqlarini, ishni tashkil qilishning ilg'or usullarini, materiallar va zaxiradagi qismlar, yoqilg'i, elektr energiyasi sarfining ilg'or normalarini joriy qilishi, ta'mir ishlari va xizmatining tannarxini kamaytirishi, ishlab chiqarishning rentabel-

ligini oshirishi kerak. Shu bilan birga xizmat ko'rsatishning yuqori madaniyatini, ta'mirlanadigan uy-ro'zg'or jihozlarining ishonchliligi va uzoq muddat xizmat qilishini (sifatini) ta'minlashi zarur.

Uy-ro'zg'or jihozni remonti firmalardagi (korxonalar) ning xizmat ko'rsatish strukturalari va ularning faoliyatidagi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, uy-ro'zg'or texnikasi ta'mirining samaradorligini oshirishning rezervlaridan biri hisoblangan texnika taraqqiyotining rivojlanishini firmalar faoliyatining ikki tomoniga mos keluvchi ikki yo'nalishda: alohiga xizmat ko'rsatishni yaxshilash samaradorligini oshirish va ishlab chiqarishning, ya'ni uy-ro'zg'or texnikasi ta'miri samaradorligini oshirish yo'nalishida ko'rib chiqish munikin.


2- mavzu

CHANGSO'RGICHLARNI TA'MIRLASH VA TA'MIRLASH SIFATINI NAZORAT QILISH

KП-1 kamerasi (1- rasm) changso'rgich va polartichlarni ta'mir qilishdan oldin ularni dastagi cho'tka bilan va havo haydab tozalash uchun mo'ljallangan. Kamera yuqorigi qismidan ish o'rni bo'lgan qutidan iborat. Kameraning shipiga yoritkich osib qo'yilgan.

Kameraning o'ng devoriga elektr apparatura va yoritkich hamda changso'rgichni ulaydigan va uzadigan kalit mahkamlangan.

Changlangan havo kameradan chang yiqqichdag'i havo so'rgichning tortuvchi ventilyasiyasiga ulanadigan havo so'rgich orqali chiqarib yuboriladi. Detallarni tozalash uchun yuboriladigan havo kameraning pastki qismiga o'matilgan maxsus changso'rgichdan beriladi.




1- rasm. Changso'rgich va polartkichlarni tozalash uchun КП-1 kamerasi.

КП-1 kamerasining texnik xarakteristikasi quyidagicha:

Kameradan so'rib olinadigan havo miqdori, m ³ /soat	1200
Belgilangan quvvat, kW	0,7
Gabarit o'lchamlari, mm	860×770×1820
Massasi, kg	120

Changso'rgichni tekshirish stendi СП-1 dastaki va polda turadigan changso'rgichlarning quvvatini, tokni va ular hosil qiladigan siyraklanishni tekshirish uchun mo'l-jallangan. Stendning panelida quyidagilar joylashtirilgan: ampermetr 5 (2- rasm), voltmetr 6, tyagomer (tortish o'lchagichi) 7, viklyuchatel 2, saqlagichlar, signal lampa 4 va LATR tipidagi avtotransformatorning dastasi 1. Stend-kollektorli elektr dvigatellarining halaqit yo'qotuvchi qurilmalarining kondensatorlari sig'imini o'lchaydigan jihoz bilan ham komplektlangan.

Sinash vaqtida ular shnuri stendining yon devorida joylashgan rozetkaga ulanadi. Kuchlanish avtotransformatorning dastasi 1 bilan noldan to tekshiriladigan changso'rgich ta'minlanadigan nominal kuchlanishgacha ravon oshirib boriladi. Changso'rgichning parametrlari jihoz-



2- rasm. Changso'rgichni tekshiradigan СП-1 stendi:

1 – avtotransformator dastasi; 2 – viklyuchatel; 3, 4 – signal lampochkalari; 5 – ampermetr; 6 – voltmetr; 7 – tortish o'lchagichi (tyagomer); 8 – rozetka; 9 – shlang.

larga qarab nazorat qilinadi. Stend uchlikli shlang 9 bor, u hosil qilinadigan siyraklanishni o'lchashda changso'rgichning chiqish teshigiga tiqib qo'yiladi. Bundan tashqari, stendning old panelida ta'minlash manbayi va signal lampa 3 ga ulangan uchlikli ikkita simni ulash uchun rozetka 8 bor. Bunday sinagich bilan zanjirning uzuqmasligini aniqlash mumkin, chunki bunda signal lampa yonadi. Agar zanjir uzuq bo'lsa, signal lampa yonmaydi.

СП-1 stendining texnik xarakteristikasi quyidagicha:

Stend tipi	stolda turadigan
Stendning ta'minlash kuchlanishi, V	220
Changso'rgichga beriladigan kuchlanishlar diapazoni, V	0–127; 0–220;
Changso'rgichning tekshiriladigan parametrlari:	
quvvati, kW, ko'pi bilan	1
tok, A, ko'pi bilan	10
siyraklanish, kPa, ko'pi bilan	24
Bitta changso'rgichni tekshirish vaqt, min, ko'pi bilan	17
Gabarit o'lchamlari, mm	800×300×520
Massasi, kg	55


CO-1 (CO-2) stendi uy-ro'zqor changso'rgichlarini ta'mirdan so'ng ishlatib chiniqtirishga mo'ljallangan. Stend ovozdan izolatsiya qilingan oltita kameradan tash-

kil topgan shkafdan iborat bo'lib (3- rasm), bu kameralarning har biriga bittadan changso'rgich joylashadi. Havo kameraga stendning yon devorlaridagi tuynuklar orqali kiradi. Stend so'rish ventilatsiyasiga stendning keyingi devorida joylashgan patrubok bilan ulanadi. Chiqadigan shovqinni kamaytirish maqsadida ichki havo yo'llari (havo o'tkazgichlar) namat bilan qoplangan va ular shunday ishlanganki, havo oqimi bir necha bor yo'nalishini o'zgartiradi.

Stendning old panelida voltmetrlar 2 va 4, changso'rgichni ishlatib chiniqtirish uchun tegishli seksiyasining ulanganligi to'qrisida signal beruvchi signal lampochkalar 3, stendni tarmoqqa ularash va uzish uchun viklyuchatel 6 joylashgan.


CO-1 (CO-2) stendining texnik xarakteristikasi quyidagicha:

Stendda bir yo'la chiniqtiriladigan changso'rgichlar soni	6
Chiniqtirish vaqtি, min	30
Stend ta'minlanadigan kuchlanish, V	220
Rozetkalarga beriladigan kuchlanish, V	
CO-1 stendi uchun	220
CO-2 stendi uchun	127/220
Stend kameralarining hammasidan so'rib olinadigan havo miqdori, m ³ /soat	600
Gabarit o'lchamlari, mm	1200×1000×1600
Massasi, kg	500



3- rasm. Changso'rgichlar chiniqtiriladigan CO-1 (CO-2) stendi:

1 – ovoz izolatsiyalash kamerasi; 2, 4 – voltmetr; 3 – signal lampochkalar; 5 – ampermetrlar; 6 – viklyuchatel.



4- rasm. Izolatsiya tekshiriladigan ЭИ-1 qurilmasi:
1 – ПУС-3 tipidagi universal teshish qurilmasi; 2 – sinash kamerasi.

ЭИ-1 qurilmasi ta'mirdan chiqarilgan elektr uyro'zg'or jihozlari izolatsiyasining elektr mustahkamligini nazorat qilish uchun mo'ljallangan. qurilma komplektiga quyidagilar kiradi: ПУС-3 tipidagi universal teshish qurilmasi 1 (4- rasm), sinash kamerasi 2, ulash simlari.

ЭИ-1 qurilmasining texnik xarakteristikasi quyidagicha:

Qurilma turi	stolda turadigan
Ish rejimi	dastaki
Taminlanadigan kuchlanish, V	220
Sinash kuchlanishi, rostlanadigan, o'zgaruvchan (effektiv qiymati), V	0–3000
Quvvati, kW, kamida	0,63
Gabarit o'lchamlari, mm	
ПУС-3 qurilmasi	520×290×345
kamerasi	800×540×500
Massasi, kg	
ПУС-3 qurilmasi	45
kamerasi	25

CMA TIPIDAGI KIR YUVISH MASHINALARI

Uy-ro'zqor sharoitida ishlatiladigan CMA tipidagi avtomatik kir yuvish mashinalari kirni berilgan programmaga muvofiq yuvish uchun mo'ljallangan. Yuvish, ivitish va chayish jarayonlari teshiklar o'yilgan barabanga solingan kirni yuvish eritmasida mexanik ravishda aralashtirib amalga oshiriladi. Kir ayni barabanning o'zida sentrifugalab siqiladi.

Avtomatik kir yuvish mashinalari oldin ishlab chiqarilgan mashinalardan konstruksiyasi va elektr sxemalari ning murakkabligi bilan prinsipial farq qiladi, ularda uylo'zqorda ishlatiladigan kir yuvish mashinalarida oldin hech qachon ishlatilmagan avtomatika elementlaridan keng ko'lamda foydalaniлади. Bularda kir yuvish jarayoni to'la avtomatlashtirilgan: barcha operatsiyalar uchun suv quyish va uni to'kish, yuvuvchi vositalarni solish, ivitish, kir yuvish mashinasining bakida suvni kir bilan birga berilgan temperaturagacha isitish, yuvish, chayish va siqish. Programmalarning turli-tumanligi ifloslanish darajasi va materialining kimyoviy tarkibi turlicha bo'lgan yuviladigan kirni sifatli va titilish darajasini kamaytirib yuvishga imkon beradi.

Kir yuvish jarayonlarini materiallar fizika-kimyoviy va mexanik xossalari hisobga olib avtomatik boshqarish uchun avtomatik kir yuvish mashinalarida kir yuvish jarayonini nazorat qiluvchi hamda rostlovchi juda ko'p jihozlar o'rnatilgan. Jihozlar mashinalarning organlarini ma'lum vaqt oraliqidagi aniq oldindan belgilangan ketma-ketlikda o'zaro ta'sirini amalga oshiradi: komandoapparat; topshiriq beruvchi qurilma; bakdagi kir yuviladigan eritma sathi, datchik-relelari.

Kir yuvish jarayoni bevosita kir yuvish bakida ish bajaruvchi organlar; elektromagnitli klapan, baraban yuritmasining elektr dvigateli; elektr nasos; elektr isitkich yordamida bajariladi.

Avtomatik kir yuvish mashinalarida ish bajaruvchi jihozlarning ishini ta'minlaydigan qator yordamchi elementlar bor: umumiy tarmoq viklyuchateli; qopqoqni blokirovkalovchi mikroviklyuchatel; kondensatorlar; rezistorlar; signal lampalari.

Barcha avtomatik kir yuvish mashinalari konstruksiyasi jihatidan foydalanilgan elektr sxemalari va qo'llanilgan avtomatika elementlari bilan farq qiladi.

Quyida avtomatik kir yuvish mashinalarining texnik xarakteristikalarini keltirilgan:

Ko'trsatkich	«Киши-нёв-2» CMA-4	«Киши-нёв-4» CMA-4	«Киши-нёв-6» CMA-4	«Волга-10» CMA-4	«Эврика автоТОМАТ» CMA-4	«Вятка-автомат» CMA-3
Nominal kuchlanishi, V	220	220	220	220	220	220
Iste'mol quvvati, kW	2,4	2,4	2,5	3,5	2	2,2
Isitkich quvvati, W	2000	1950	1950	1000	1750	1950
Solinadigan quruq kir miqdori, kg	4	4	4	4	3	4
Programmalar soni	11	14	10	16	11	12;14;16
Gabarit o'l-chamlari, mm						
uzunligi	850	850	850	700	600	850
kengligi	500	500	500	580	415	545
balandligi	595	600	600	430	615	590
Massasi, kg	110	110	110	90	85	90

CMA-4 tipidagi «Вятка-автомат» kir yuvish mashinasi. Mashina sovuq va issiq suv bilan ta'minlash tarmoqidan ishlaydi, u barcha turdag'i gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni yuvish, chayish va siqish uchun mo'ljallangan. Mashinaga kir old tomondan solinadi. «Вятка-автомат» mashinasining uch modifikatsiyasini ishlab chiqarish nazarda tutiladi: 12 ta programmlari «Вятка-автомат-12»; 6 tasi qalin matolar uchun va 6 tasi yupqa matolar uchun; 14 ta programmali «Вятка-автомат-14»: 7 tasi qalin matolar uchun va 7 tasi yupqa matolar uchun; 16 ta programmali «Вятка-автомат-16»: 8 tasi qalin matolar uchun va 8 tasi yupqa matolar uchun.

Mashina kam ko'piradigan yuvuvchi sintetik vositalardan («Лотос», Эра» va shunga o'xshash kir yuvish kukunlari) foydalanilgan holda ma'lum programmani tanlab kir yuvish rejimini tanlash imkonini beradi.

Programma komandoapparatni boshqarish dastasi va mashina korpusining old paneliga joylashgan maxsus viklyuchatellar vositasida teriladi. Mashina suv toshib ketishdan himoyalangan. Mashina begona jismlarning ulanib qolishini ta'minlaydigan gidravlik filtr bilan jihozlangan. Filtr qopqoqi korpusga zinch qilib berkitilgan va 9,4 kPa bosimga bardosh bera oladi.

Mashina konstruksiyasi suyuqlikni bakdan to'la chiqarib yuborilishini ta'minlaydi; gidrosistemada ko'pi bilan 500 m/suyuqlik qolishiga yo'l qo'yiladi.

Suv sarfi, l/min

ivitish elektr klapani	9–11
ma'lum chegaralarda yuvish elektr klapani	9–11
ma'lum chegaralarda oqartirish elektr klapani	5–7
ma'lum chegaralarda qaynoq suv elektr klapani	9–11

Mashinaga quyilgan suv miqdori, /	
I sathgacha	21
II sathgacha	26
Elektr nasosining ish unumi, l/min	30
Barabanining aylanish chastotasi, min ⁻¹	
kir yuvish paytida	62
kir siqish paytida	500
Yuvib tozalanishi, % kamida	52
Puxtaligining pasayishi, % ko'pi bilan	15
Qoldiq namligi, % ko'pi bilan	110


Mato turi yoki operatsiyaga muvo/iq tegishli programmama nomerlari:

Juda ifloslangan kir	1	Aralash matolar	
Normal ifloslangan kir	2	Sintetika (suv temperaturasi 60 °C)	8
Aynimaydigan bo'yoqlar	3	Sintetika (suv temperaturasi 40 °C)	9
Chayish		Jun mato	10
Maxsus ishlov berish	5	Chayish	11
Siqish	6	Suvni to'kish	12

Buyumlarni yuvish, chayish, siqish hamda programmalarni va yuvuvchi eritmalar temperaturasini rostlash kabi barcha jarayonlar bajariladi. Buyumlar va yuvuvchi vositalarni mashinaga solish, zarur programmmani terish, mashinani ishga tushirish va yuvib tozalangan buyumlarni mashinadan olish jarayonlari qo'lida bajariladi.

Mashina korpusi 35 (5- rasm) po'lat listdan tayyorlangan va o'zaro payvandlab biriktirilgan shtamplab ishlangan detallardan iborat. Korpus burama mixlar vositasida mahkamlangan qopqoq 37 bilan yopib qo'yiladi. Mashina korpusi oq buyoq bilan bo'yalgan.

Korpus ichiga bak 7 o'rnatiladi. Unga kir yuvish barabani yuritmasining ikki tezlikli elektr dvigateli 75 mahkamlangan. Bak korpus tirkaklari 2 ga mahkamlangan ikkita silindrik prujina 8 ga osib qo'yiladi.



5- rasm. «Вятка-автомат-12» kir yuvish mashinasi:

1 – dozator; 2 – tirak; 3 – prujina; 4 – shlang; 5, 6 – klapanlar; 7 – bak; 8, 14 – shkivlar; 9, 10 – shlanglar; 11 – tasma; 12 – temperatura datchik-relesi; 13 – TEH tipidagi elektr isitkich; 15 – elektr dvigatel; 16 – to'kish shlangi; 17 – sath datchigi shlangi; 18 – amortizator plastinasi; 19 – kondensator; 20 – ressora; 21 – elektr nasos; 22 – filtr; 23 – krestovina; 24 – patrubok; 25 – sath datchigi; 26 – posangi; 27 – komandoapparat; 28 – panel; 29 – signal lampasi; 30 – komandaapparat dastasi; 31 – programmalar viklyuchateli; 32 – lyuk; 33 – tuyanchilar; 34 – old devor; 35 – mashina korpusi; 36 – dozator bunker; 37 – korpus qopqog'i; 38 – radiokalaqitlar filtri.

Bakning har qaysi qismiga ikki tomondan metall plastinalar 18 payvandlangan. Plastinalar ressora 20 ning korpusiga mahkamlangan friksion boshmoqchalari bilan kontaktda bo'ladi. Bu sistema bakda o'rnatilgan posangilar 26 bilan birgalikda mashinaning titrashini kamaytirish uchun xizmat qiladi.

Yuvuvchi eritmani isitish va uning temperaturasini nazorat qilish tegishlicha bak ichiga o'rnatilgan elektr isitkich 13 hamda temperatura datchik-releleri 12 yordamida amalga oshiriladi.

Bakdag'i bug' patrubok 24 orqali chiqadi. Kir te-shiklar o'yilgan barabanga lyuk 32 orqali solinadi. Kir oldindan topshirilgan programmaga muvofiq (matoning tipiga qarab) yuviladi. Kerakli programma komandoapparatining dastasi 30 yordamida teriladi. Baraban bak 7 ichiga o'rnatilgan bo'lib, krestovina 23 da joylashgan podshipnik uzelida aylanadi. Baraban 14 va 8 shkivlar hamda ponasimon tasma 17 orqali elektr dvigatel 15 dan aylanadi. Kir yuvish jarayonida kir yaxshi aralashishi uchun barabanda uchta qovurg'a bor.

Mashinaning orqasida korpusning ustki qismida dozator 1 li shlanglar 4 vositasida birlashtirilgan elektromagnitli ikkita klapan 5 va 6 klapanlardan iborat vodo-provod tarmoqiga ulanadigan blok; bakning pastki qismiga shlang 17 yordamida ulangan suyuqlik sathi datchigi 25; mashinani elektr tarmoqiga ulash shnuri va shtepsel rozetkasi o'rnatilgan xalaqit yo'qotuvchi filtr joylashgan. Dozator 1 bakni elektormagnitli klapanlar orqa-li suvga to'ldirish vaqtida bakka yuvuvchi vositalar va kirning maxsus ishchlov berish vositalarini solish uchun xizmat qiladi.

Korpusning ustki qismida plastmassa panel 28 joylashgan. Panelda: komandoapparat dastasi 27, tejamli yuvish rejimini ulash uchun tugmachali viklyuchatel 31; mashinaning ishlashi xaqida signal beruvchi signal lam-pa 29, dozator bunkerining dastasi 36 joylashgan.

Mashinaning pastki qismiga ishlatib bo'lingan yuvuvchi eritmaning (maqzavani) chiqarib tashlash uchun xizmat qiladigan elektr nasos 21, korpusning old devorida joylashgan qopqoq bilan yopiladigan olinadigan filtr 22 va kondensator 19 o'rnatilgan.


Mashina issiq va sovuq suv quyish uchun olib qo'yiladigan shlanglar 16 bilan jihozlangan. Balandligi bo'

yicha rostlanadigan tayan-chlar 33 mashinani o'rnatish uchun xizmat qiladi.


Mashinaning komandoapparati (6- rasm) sinxron kichik elektr dvigatelda aylanadigan kulachoklar to'plamidan iborat. Kulachoklar soni kir yuvish mashinasini programmalarining soniga bog'liq. Komandoapparat ikkita to'liq siklni bajarish uchun mo'ljallangan. Sikllar bir-biridan ikkita to'x-tash (qalin va yupqa matolarni yuvish uchun) bilan ajraladi. Bu asosiy sikllar ichida ma'lum programmlar sonini tanlash mumkin. Programmalar soni har qaysi mashina modeli uchun turlichcha bo'ladi. Komandoapparat qo'shimcha, ya'ni ikkinchi sathgacha qo'shimcha suv quyish funksiyasini bajaradi.

Mashina avaylab kir yuvish rejimida ishlayotganida gidrostop ishga tushadi. U chayqalib turgan toza suvda yupqa matoni tutib turish uchun xizmat qiladi. Bunday operatsiya bo'lmasa kir mato (ayniqsa, sintetik mato) ma'lum vaqt suvsiz qolib buklanib qolishi mumkin va uni dazmollab to'g'rilash qiyin bo'ladi.

Sath datchik-relesi kir yuvish mashinasini bakiga quyiladigan suvining kerakli sathini nazorat qilish uchun xizmat qiladi. «Вятка-автомат» avtomatik kir yuvish mashinasida PY-3CM sath relesi ishlatiladi. Sath datchik-



6- rasm. «Вятка-автомат-12» mashinasining komandoapparati:
1 – plastina; 2 – kulachokli blok;
3 – yuritma; 4 – klemma kolodkasi;
5 – pereklyuchatel dastasi



7- rasm. PY-3CM tipidagi sath datchik-relesi:

1 – parchinmixlar; 2 – korpus; 3 – shtutser; 4 – membrana; 5 – qopqoq; 6 – markaz; 7 – tirak; 8 – rostlash vinti; 9 – prujina.

relesi quyidagi bosimlarda ishga tushishiga sozlanadi: 1765 Pa – suv sathi ko'tarilganda; 588 Pa – suv sathi pasayganida.

Suv sathi ko'tarilganda ish diapazoni 785 dan 2450 Pa gacha, nosezgirlik zonasasi kamida 490 Pa bo'ladi.

Sath datchik-relesining barcha asosiy detallari korpus 2 ga (7- rasm) mahkamlangan. Korpus bilan qopqoq 5 orasiga sezgir element bo'lib xizmat qiladigan va sath relesini ikkita bo'shliqqa bo'ladigan membrana joylashtirilgan. Bo'shliqlardan biri shtutser 3 orqali birlashdirilgan, suyuqlik sathi nazorat qilinadigan germetik bo'shliqlar, ikkinchisi pereklyuchatellar joylashtirilgan bo'shliqdir. Membrana bilan turtkichlari bor bikr markaz 6 biriktirilgan. Turtkichlar kuchni tirkaklar 7 orqali prujinalanadigan plastinalarni qayta ulaydigan uskunalarga va sozlash prujinalari 9 ga uzatiladi. Sozlash prujinasining ikkinchi uchi rostlash vintlari 8 ga tiraladi. Kontaktlarning oniy qaytishi orqaga qaytaruvchi prujinalar hisobiga amalga oshiriladi.


Qo'zqalmas kontaktlar korpusga parchinmixlar 1 vositasida mahkamlanadi. Datchik-relening ishga tush-

ishi va nosezgirlik zonası, shuningdek, kontaktlar orası-dagi maxsus vintlar yordamida rostlanadi. Kerakli ishga tushirish sathlari prujinaning siqilishini 8 vintlarni rost-lash hisobiga bajariladi.

Sath relesida qayta ulaydigan plastinalar ichiga qo'-shimcha himoya kontakti o'rnataladi. Membrana 4 qop-qoq 5 korpus 2 ga qopqoq chetlarini korpusning yon devorlariga tushirib mahkamlanadi. Nazorat qilinadigan sath pulsatsiyasining relening ishga tushishiga ta'sir qil-masligi uchun shtutser 3 da havo bosimini drosellovchi kalibrangan teshik bor.

Sath relesining ish jarayoni suyuqlik ustuni hosil qiladigan va membranaga ta'sir qiladigan bosimni ko'chma kontaktlarni siljitim hamda sath relesining kontakt qurilmalarini qayta ularshga, o'zgartirishga asoslangan. Bosim ortib sathning berilgan yuqori qiymatiga erish-ganda membrana 4 turkichlar orqali kontaktlarni qayta ulaydi. Bosim nosezgirlik zonası kattaligiga pasayganda kontaktlar qayta ulanadi.

Tok 16 A va kuchlanish 220 V gacha kommutatsiya-langanda suv to'kish paytida kontaktlar payvandlanib qolishi mumkin. Bunday holda TЭH tipidagi elektr isit-kichning kuyishiga yo'l qo'ymaslik uchun sath relesining ichiga qo'shimcha kontakt o'rnataladi. Bu kontakt 220 V kuchlanishda 0,1 A tokni kommutatsiyalaydi va bakdagi suv sathiga nisbatan belgilangan nuqtadan past-da to'kilganda puxta tutashadi. Himoya kontakt orqali elektr ventilining ta'minlash zanjiri ulanadi, ventil kir yuvish mashinasining bakiga avariya vaqtida suv berila-digan yo'lni ochadi, natijada TЭH kuyishining oldini oladi. Bakdagi suv temperaturasi 60 °C gacha va undan yuqori ko'tarilganda TЭH ning ta'minlash zanjiri tem-peratura bo'yicha himoya relesi yordamida tok tarmo-g'idan ajraladi.




8- rasm. ДРТ-Б tipidagi temperatura datchik-relesi:
1 – korpus; 2 – qopqoq; 3 – asos; 4, 5 – kontakt chiqarmalar; 6 – maxsus vint; 7 – surish prujinasi; 8 – vtulka; 9 – sferik kontakt; 10 – kontakt shayba; 11 – prujina; 12 – disk; 13 – vtulka turtkich; 14 – shtok; 15 – kontakt prujina; 16 – firma jadvali.

rele kontaktlarini ajratadi. Suyuqlikni isitish davom etirilsa, disk (kontaktlar ajratilgan) yana bukiladi.

Kontakt prujina egiladi. O'ta yuklanish kattaligi 100°C temperaturagacha hisoblangan. Soviganda diskning bukilishi (kontaktlar ajratilgan) kamayadi va ishga tushirish temperaturasida disk «chiquillaydi» va kontakt prujinani bo'shatadi. Kontaktlar tutashadi. Kontaktlar tutashib turganda sovitish davom ettirilsa, diskning bu-

Kir yuvish mashinasida ДРТ-А yoki ДРТ-Б tipidagi ($40, 60$ va 90°C temperaturaga mo'ljallangan) uchta temperatura datchik-relesi (8- rasm) ishlatilgan. Datchiklarning nominal kuchlanishi 220 V ; o'lchamlari $41 \times 37,6\text{ mm}$. Rele bak ichiga zinchlash vtulkasi bilan birga ko'pi bilan 8 mm kirib turadi. Rele massasi ko'pi bilan 50 g .

Nazorat qilinadigan suyuqlik temperaturasining o'zgarishi sezgir elementning bukilishiga sabab bo'ladi. Nazorat qilinadigan suyuqlik isiganda sezgir element (disk)-ning bukilishi kamayadi, termorelening temperurasini ishga tushish temperurasiga yetganda esa disk «chiquillab» vtulka-turtkich orqali prujinani bosadi va termorele kontaktlarini ajratadi. Suyuqlikni isitish davom etirilsa, disk (kontaktlar ajratilgan) yana bukiladi.



9- rasm. Elektromagnitli klapan:

1, 9 – manjetlar; 2 – o'zak; 3 – prujina; 4 – prujina uchi; 5 – g'altak; 6 – korpus; 7 – membrana; 8 – klapan egari; 10 – tayanch; 11 – filtr; 12 – kontakt plastina.

kilish ortadi. Sovitishda o'ta yuklanish kattaligi 60°C temperaturagacha hisoblanadi. D-9 epoksid yelimi quyish yo'li bilan relening germetikligiga erishiladi.


Elektromagnit klapanlarning (9- rasm) ikki tipi: bir klapanli va uch klapanli ishlatiladi. Klapanlar 220 V nominal kuchlanishga hisoblangan, ularning suv o'tkazish qobiliyati 10 l/min, nominal ish bosimi 49 kPa, maksimal ish bosimi 784 kPa.

«Вятка-автомат» kir yuvish mashinasining elektromagnitli klapanlari vaqtining istalgan momentida mashinaga quyilayotgan sovuq va issiq suvni to'xtatib qo'yadi. Elektr g'altak ulanganda porshen g'altak ichiga tortiladi, natijada suv oqimi beriladigan truba berkildi.

10- rasm. «БЯКТА-автомат-12» кір
yuvish mashinasining elektr

схемасы:

$C_1 = 12 \mu\text{F}$ li kondensator; $C_2 = 16 \mu\text{F}$ li kondensator; IB – klapamli, bir qutbli viklyuchateli; $EV - EV_i$ – КЭН-3 tipidagi uch seksiyali elektromagnet klapanlar; EV_i – КЭН-1 tipidagi bir seksiyali elektromagnitli klapan; $M/C, ML$ – 4AYT-80B/16 tipidagi elektr dvigatel; S – KOMA tipidagi komandoapparat; IP – МП-2102c tipidagi mikroviklyuchateli; MT – KOMA tipidagi komandoapparat elektr dvigateli; Rez – BS-CM tipidagi sath relesi; K – PHK-IV3 (PTK-1-3) tipidagi rele; R_i – МЈТ-5,1 kΩ tipidagi rezistor; R – trubalar dan yasalgan KOMA tipidagi elektr rezistor; SL – signal lampa; TN_1 – ДРТ-А-АС tipidagi temperaturalar datchik relesi; TN_2 – ДРТ-А-66 tipidagi temperatura datchik-relesi; MPS – elektr nasosning ЭН-М-1В tipidagi elektr dvigateli; E, Z – ФН-1 tipidagi xalqatl yo'qotuvchi filtrlari.



Klapan o'tkazadigan suv miqdori vaqt birligida qayd qilingan, shuning uchun uni kir yuvish mashinasida dozalash mashinaning ish vaqtiga bog'liq.

«Вятка-автомат-12» mashinasining elektr sxemasi 10- rasmida ko'rsatilgan. Elektr sxemaning ishlash tavsisi birinchi programma uchun keltirilgan.

«Вятка-автомат» mashinasida uchraydigan buzuqliliklar va ularni bartaraf qilish usullarini keltiramiz:

«Вятка-автомат» kir yuvish mashinasida uchraydigan buzilishlar va ularni bartaraf qilish usullari

Sababi	Bartaraf qilish usuli
<i>Ulanganda signal lampa yonmaydi, mashina ishlamaydi</i>	
Signal lampa ishdan chiqqan Tarmoqqa ularsh shnuri uzilgan yoki shtepsel vilkasi buzilgan	Signal lampa almashtirilsin Uzilgan joy tuzatilsin yoki shnur yoxud shtepsel vilkasi almashtirilsin
Radioxalaqitlarning filtri buzilgan	Radioxalaqitlarning filtri almashtirilsin
Mikroviklyuchatel buzilgan	Mikroviklyuchatel almashtirilsin
Komandoapparatning 13-T yoki 14-T kontaktlari tutashmagan	Komandoapparat almashtirilsin
<i>Baraban yuritmasining elektr dvigateli ishlamaydi</i>	
Ulash zanjirining biron joyi uzilgan	Uzilgan joy ulansin
Elektr dvigatel ishdan chiqqan	Elektr dvigatel almashtirilsin
Komandoapparat buzilgan	Komandoapparat almashtirilsin
TN, temperatura datchik-relesi buzilgan	Datchik-rele almashtirilsin

*Elektr dvigatel tarmoqqa ulanganda guvullaydi, lekin
baraban aylanmaydi*

Baraban kir bilan o'ta yuklangan	Mashina to'xtatilsin, kirming bir qismi olinsin, 3–5 min dan so'ng mashina qaytadan ishga tushirilsin
Elektr dvigatel buzuq	Elektr dvigatel almashtirilsin
Ishga tushirish kondensatori teshilgan	Kondensator almashtirilsin
Tarmoqdagi kuchlanish kamaygan	Kir yuvishni boshqa vaqtga ko'chirish kerak

*Baraban yuritmasining elektr dvigateli
reverslanmasdan ishlaydi*

Komandoapparat buzilgan	Komandoapparat almashtirilsin
-------------------------	-------------------------------

*Baraban yuritmasining elektr dvigateli ishlaydi,
biroq baraban aylanmaydi*

Yurituvchi tasma uzilgan	Yurituvchi tasma almashtirilsin
Yurituvchi tasmaning tarangligi bo'shashgan	Yurituvchi tasmaning tarangligi rostlansin
Yetaklanuvchi shkiv valda aylanadi	Yetaklanuvchi shkiv almashtirilsin

Kir yuvish bakida suv isimaydi yoki yomon isiydi

TЭH kuygan Komandoapparat buzilgan	TЭH almashtirilsin Komandoapparat almashtirilsin
Temperatura datchik-relesi buzilgan	Temperatura datchik-rele almashtirilsin

Suv kelmaydi

Sath relesining ulash zanjiridagi biror joy uzilgan	Uzilgan joy ulansin
Elektro-magnitli klapan buzilgan	Elektromagnitli klapan almashtirilsin
Komandoapparat buzilgan	Komandoapparat almashtirilsin
Sath relesi buzilgan	Sath relesi almashtirilsin

Suv yo'l qo'yilgan sathdan ortiq beriladi

Sath relesi shtutserining teshigi ifloslangan	Teshik tozalansin
Sath relesi buzilgan	Sath relesi almashtirilsin
Komandoapparat buzilgan	Komandoapparat almashtirilsin

Suvni kir yuvish bakidan chiqarib bo'lmaydi

Nasosning filtri ifloslangan	Filtr tozalansin
Nasos ifloslangan	Nasos tozalansin
Parrak singan	Parrak almashtirilsin
Nasosning elektr dvigateli ishdan chiqqan	Elektr dvigatel almashtirilsin
Komandoapparat buzilgan	Komandoapparat almashtirilsin

*Komandoapparat pozitsiyalardan birida to'xtab qoladi.
Baraban aylanganda qattiq shovqin chiqadi va titraydi*

Komandoapparat buzilgan	Komandoapparat almashtirilsin
Bak osilgan prujinalar bo'shagan	Prujinalar mahkamlansin
Posangi mahkamlangan joy bo'shashgan	Posangilar mahkamlanadigan gaykalar tortib taranglansin
Ressor singan	Ressor almashtirilsin
Ressor boshmoqlari yeyilgan	Boshmoqlar almashtirilsin

<i>Mashina tubidan suv oqadi</i>	
Bak rezina manjetlarining germetikligi buzilgan	Manjetlar almashtirilsin
TƏH zichlamasi yoki qistirma orqali suv oqib chiqadi	Zichlama yoki qistirma almashtirilsin
Shlanglar shikastlangan	Shlanglar almashtirilsin
Bak teshilgan	Bak almashtirilsin

Eng murakkab nuqsonlarni aniqlash metodikasi. Butun mashina yoki uning alohida uzellarini qismlarga ajratishdan oldin uning nuqsonli joyini aniqlash zarur.

Elektr sxemaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, komplektlovchi buyumlarning (dvigatel, TƏH, elektromagnitli klapan va hokazolar) ta'minlash zanjiri, mikroviklyuchatel, sath relesi va komandoapparat kontaktlari orqali o'tadi. Bunday xususiyat mashinaning elektr sxemasidagi buzilgan joylarni qidirish ma'lum metodikasidan foydalanishni talab etadi.

Nuqsoni bor deb taxmin qilinayotgan tekshirilayotgan zanjir (bo'lishi mumkin bo'lgan buzuqliklar ro'yxati bo'yicha aniqlanadi) ulash simlarining olinadigan kontaktlarini komandoapparat klemlaridan pozitsiyaga ajratish yo'li bilan uziladi. Bunda tekshirilayotgan zanjir uziladi yoki tutashadi. So'ngra komandoapparatning ham, jgut (komplektlovchi buyumlar bilan birgalikda) elektr zanjirlarning ham buzuqmasligi ommetr yordamida tekshiriladi. Agar zanjir elementlarining birida (elektromagnitli klapan, elektr dvigatel, TƏH) qisqa tutashish sodir bo'lsa, buni strelkaning katta burchakka oqishidan bilish mumkin.

Nuqson topilgandan keyin zanjirning alohida uzellari qismlarga ajratish texnologik jarayonlariga muvosiq qismlarga ajratiladi. Agar nuqsonlar mexanik nuqson bo'lsa (masalan, tasma tarangligi bo'shashgan, suvning sizishi va hokazo), buzuq joy tez topiladi.

Juda xarakterli hollarda buzilish sabablari quyidagi tarzda aniqlanadi.

Baraban yuritmasining elektr dvigateli guvillarydi, biroq aylanmaydi. Bu buzuqlik sababini elektr dvigateli ning kir siqish rejimida ishlashini ta'minlaydigan chulg'amning tok bilan ta'minlaydigan zanjirdan (РУ-3СМ ning kontaktlari 1 va 3; komandoapparatning 5B, 9B va 3B kontaktlari; K₁, K₂, K₃RP) va kir yuvish rejimida elektr dvigatelning ishlanishi ta'minlaydigan (РУ-3СМ ning kontaktlari 1 va 2; ДРТА-40 kontaktlari; komandoapparatning 2T, 4T, 4B, 1B, 1T, 9T, 3T, kontaktlari) chulg'amining tok bilan ta'minlash zanjirlardan birin ketin qidirish lozim. Agar elektr dvigatelning chulg'amlari kuygan bo'lsa, komandoapparatning yuqorida aytib o'tilgan kontaktlarining kuygan-kuymaganligini tekshirish zarur.

Kir yuvish bakiga suv kelmaydi. Dastavval elektromagnitli klapanning ifloslanmaganligi tekshiriladi.

Buning uchun klapan patrubokidan suv quyish shlangi ajratiladi va filtr chiqarib olinadi. Agar filtr iflos bo'lsa, u tozalanadi yoki yangisiga almashtiriladi. So'ngra elektromagnitli klapanlar tarmoqqa ulanadigan zanjirlarning (РУ-3СМ ning kontaktlari 2 va 3, komandoapparatning kontaktlari 12T, 12B, 11T, 11B) buzuq emasligi tekshiriladi. Ta'minlash zanjirlarini tekshirgandan keyin klapan chulg'amining qarshiligini ommetr yordamida o'lchab uning butunligiga ishonch hosil qilish zarur.

«Вякта-автомат» avtomatik kir yuvish mashinasи quyidagi tartibda qismlarga ajratiladi va uzellari almash tiriladi.

Asosiy elektr dvigateli almashtirish. Mashina yonboshlatib qo'yiladi. Elektr sxema simlari elektr dvigateldan ajratiladi. Shkivdan tasma chiqarib olinadi, elektr

dvigatelni kir yuvish baki kronshteynlariga mahkamlash boltlari burab chiqariladi. Elektr dvigatel olinadi va yangisi o'matiladi.

Asosiy elektr dvigatelning ish kondensatorini almash-tirish. Mashina yonboshlatib qo'yiladi. Kondensator elektr sxemasidan ajratiladi. Kondensatorlar mahkamlanadigan xomutlar vintlari burab chiqiladi. Kondensatorlar olinadi va yangilab qo'yiladi.

Motor-nasosni almashtirish. Mashina yonboshlatib qo'yiladi. Motor-nasosning elektr dvigateli elektr sxemasidan ajratiladi. Motor-nasos mahkamlanadigan boltlar qarshisidagi maxsus tuynukdan foydalanib uzunligi kamida 40 mm bo'lgan M8 tores kaliti yordamida bu boltlar burab chiqariladi. Motor-nasos olinadi va yaroqlisiga almashtirib qo'yiladi.

Komandoapparat, sath datchik-relesining elektromagnitli klapanlari va qo'shimcha suv quyish knopkalarini almashtirish. Kir yuvish mashinasining ustki qopqog'i olinadi, buning uchun korpusga mahkamlaydig'an shuruplar maxsus figurali otvyorka yordamida burab chiqariladi (old paneldan disk-ko'rsatkich va pereklyuchatel olinadi), komandoapparat old panelga mahkamlangan vint burab chiqiladi. Komandoapparat elektr sxemadan ajratiladi va chiqarib olinadi. Rezina shlanglar, elektr magnitli klapanlarga mahkamlanadigan xomutlar, rezina shlanglar olinadi. Elektromagnitli klapanlar mahkamlanadigan vintlarni burab, elektromagnitli klapanlar chiqarib olinadi.


Sath datchik-relesining patrubogidan rezina shlang olinadi. Sath datchik-relesi mahkamlanadigan vint burab chiqariladi. Sath datchik-relesi olinadi. Qo'shimcha suv quyish knopkalari elektr sxemadan ajratiladi. Knopkalar mahkamlanadigan prujinalar siqiladi va knopkalar olinadi. Buzuq uzel almashtiriladi.

Kir yuvish baki va barabanni almashtirish. Kir yuvish mashinasining ustki qopqoqi olinadi. Amortizatsiyalovchi yukni kir yuvish bakiga mahkamlaydigan boltlar toresli kalit bilan burab chiqariladi. Yuvuvchi vositalar solinadigan nov olinadi, buning uchun novni old devoriga mahkamlab turadigan shuruplar burab chiqariladi va suv quyiladigan rezina shlanglar ajratiladi. Yuqorida bayon etilgandek komandoapparat va elektr magnitli klapanlar olinadi, bunda ular elektr sxemadan ajratilmasligi kerak. Orqa qopqoq mahkamlanadigan shruplarni burab chiqarib qopqoq olinadi. Bak barcha rezina shlanglaridan ajratiladi. Barabanni kir yuvish mashinasining korpusidan ko'tarib turib bak baraban bilan birga olinadi. Shkivni baraban o'qiga mahkamlab turadigan bolt burab chiqariladi. Shkiv olinadi. Yoqoch bolqacha bilan baraban o'qiga sekin-asta urib o'q chiqarib olinadi. Kir yuvish baki yoki baraban almashtiriladi.

4- mavzu

KIR YUVISH MASHINALARINI TA'MIRLASH UCHUN KERAK BO'LADIGAN ASBOBLAR, MOSLAMALAR VA USKUNALAR

ПЧ-2 ko'chma asboblar komplekti. Ko'chma komplekt (11- rasm) kir yuvish mashinalarini uy sharoitlarida tekshirish va ta'mirlashuchun mo'ljallangan. Asbob va moslamalar to'plami qalinligi 1,5 mm li aluminiy listdan tayyorlangan chamadon ichida joylashgan. Chamadonning gabarit o'lchamlari $420 \times 300 \times 120$ mm, massasi 8 kg. Ixham va foydalanish qulay bo'lishi uchun slesarlik asboblarining bir qismi chamadonning qopqog'ida joylashgan. Asboblar komplektiga: turli otvyort-



11-rasm. Kir yuvish mashinalarini ta'mirlash uchun ПЧ-2 tipidagi ko'chma asboblar komplekti.

Jihoz yordamida tarmoq kuchlanishini, iste'mol qilinadigan tokni o'lhash, elektr zanjirning uzilgan yoki uzilmaganligini aniqlash mumkin. Chamadonning maxsus bo'limida dastaki metchiklar to'plami, turli diametrlı parmalar, buklama pichoq saqlanadi. Chamadonning pastki qismida kir yuvish mashinalarining ehtiyyot qismlarini saqlash uchun joy nazarda tutilgan. Ehtiyyot qismlar komplektida P-10 va PTK-C tipidagi rele, ПНВС-10 tipidagi ishga tushirgich, yuritish tasmalari, mahkamlash materiali, simlar, qistirmalar, vaqt relesi va hokazolar bo'lishi mumkin.

Kir yuvish mashinalarini ta'mirlash uchun YPCM-1 uskunalar komplekti. YPCM-1 uskunalar komplekti dastaki va yarimavtomatik kir yuvish mashinalarini ta'mirlash hamda ta'mirdan so'ng ularni barcha parametrlari bo'yicha tekshirish uchun mo'ljallangan.

kalar, toresli kalitlar, sumbalar, vorotok, zubilo, razvyortka, kerner, slesarlar bolg'achasi, podshipniklarni chiqarilib olish uchun syomnik, passatijlar, gayka kalitlari, elektr kavsharlagich kiradi.

Chamadon korpusida shkalasi 250 V gacha bo'lган voltmetr, 10 A ga mo'ljallangan ampermetr, shchupli sinagichdan iborat jihoz joylashgan. Shchuplar jihozdagi uyalarga ulanadi va ular tutashganda signal lampasi yonadi.

Kompleks tarkibiga quyidagi moslama va qurilmalar kiradi: УPCM-11 tipidagi yuk ko'tarish УPCM-12 tipidagi verstak, УPCM-1 tipidagi moslama УPCM-14 tipidagi ko'tariladigan stol hamda УPCM-15 va УPCM-16 tipidagi stendlar.

УPCM-11 tipidagi yuk ko'targich (12- rasm) kir yuvish mashinasini 1200 mm gacha balandlikka ko'tarish va uni surishni ta'minlaydi. Yuk ko'targichning gabarit o'lchamlari $1000 \times 2000 \times 2400$ mm, massasi 230 kg.

Slesarlik-yig'ish operatsiyalarini bajarish uchun slesarlik va o'lchov asboblari komplekti hamda maxsus moslamalari bor УPCM-12 tipidagi verstak. To'plam tarkibiga syomniklar, kir yuvish mashinalari, kir siqgich, quritkichlarning korpusidagi vintlarni parmalab teshish uchun konduktori, «Тула-2» kir yuvish mashinalarining kir siqish qurilmalarini ta'mirlash uchun konduktor, «Рига» kir yuvish mashinasi nasosining korpusidagi vintlarni parmalab teshish uchun konduktor, vint uchini frezalash uchun konduktor, toresli kalit, yog'och bolg'a, egovlar va hokazolar kiradi, verstakning gabarit o'lchamlari $1500 \times 1050 \times 1650$ mm, massasi 260 kg.

УПС-1 tipidagi universal moslama (13- rasm) stol hamda asboblar va maxsus moslamalar to'plami bor stol ustiga o'rnatiladigan pressdan iborat. Moslama kir yuvish



12- rasm. УPCM-11 tipidagi
ko'targich:
1 – boshqarish pulti; 2 – ustun.



13- rasm. Kir yuvish
mashinalarini ta'mirlash uchun
YPCM-1 tipidagi universal
moslama.



14- rasm. YPCM-14 tipidagi
ko'tarish stoli.

mashinalarining kir siqish qurilmalarini qismlarga ajratish va yig'ish, qismlarga ajratish va yig'ish sharikli podshipniklarni presslab o'rnatish hamda joyidan chiqarish va hokazolarga mo'ljallangan. Moslamaning gabarit o'lchamlari $1000 \times 800 \times 1600$ mm, massasi 160 kg.

YPCM-14 tipidagi ko'tarish stoli (14- rasm) kir yuvish mashinasini 800 mm gacha balandlikka ko'tarish va 360° ga burish uchun mo'ljallangan. Stolning ko'tara oladigan yuki 100 kg, iste'mol qiladigan quvvati 0,6 kW, gabarit o'lchamlari $1170 \times 810 \times 1055$ mm, massasi 225 kg.

Elektr parametrlarni tekshiradigan YPCM-15 tipidagi stand (15- rasm) uy-ro'zg'orda ishlataladigan yarim avtomatik va dastaki kir yuvish mashinalari hamda ularning apparatlarini ustaxonalarda quyidagi parametrlar bo'yicha nazorat qilish uchun mo'ljallangan: past kuchlanishda ishga tushirish; ishga tushirish toki; iste'mol



15- rasm. Kir yuvish mashinalarining elektr parametrlarini tekshirish uchun mo'ljallangan YPCM-15 tipidagi stend.



16- rasm. Elektr izolatsiyaning puxtaligini sinash uchun YPCM-16 tipidagi stend.

qiladigan tok; iste'mol qiladigan quvvat; issiqlik, hamma va ishga tushirish-himoya relelarining ishga tushirish vaqt; ishga tushirish va ishga tushirish-himoya relesini ishga tushiruvchi tok; izolatsiyaning qarshiligi; aktiv qarshilik.

Stendning texnik ma'lumotlari quyidagicha:

Nazorat kuchlanishini rostlash, V

0–250

Elektr izolatsiyaning puxtaligini sinash uchun mo'ljallangan YPCM-16 stendi (16- rasm) izolatsiyalangan kamera va ПУС-3 tipidagi universal tashish qurilmasidan iborat.

Stendning texnik ma'lumotlari quyidagicha:

Sinash kuchlanishi (rostlanadigan), V

0–3000

Ta'minlash kuchlanishi, V

220

Gabarit o'lchamlari, mm

1000×755×1300

Massasi, kg

110

Bo'yash uskunaları kompleksi. Kompleks uy-ro'z-g'or texnikasi buyumlarini aholiga maishiy xizmat ko'r-satish korxonalarida bo'yash va keyin quritish uchun mo'ljallangan. Kompleks tarkibiga KO-2 bo'yash kamerasi va KS-1 quritish kamerasi kiradi.

KO-2 bo'yash kamerasida havo pastdan vertikal so'rib olinadi va uyurma havo yuvish sistemasidan foy-dalanib ho'l usulda havo bo'yoqdan tozalanadi. Buyum-lar dastaki bo'yoq changitkich yordamida pnevmatik changitish usulida bo'yaladi. Gliftali, pentaftali, soki-stirolli, mochevino va melaminoformaldegidli, epoksidli va fenolli lok bo'yoq materiallari bo'ladi.

Kameraning texnik ma'lumotlari quyidagicha:

Ish tuynugining o'lchamlari, mm	1000×800
Havoning ish tuynugidagi tezligi, m/s	240,3
Kameraning ta'minlash kuchlanishi, V	220/380
Belgilangan quvvati, kW	12
Gabarit o'lchamlari, mm	2000×1500×500
Massasi, kg	660

KC-1 quritish kamerasi boshi berk tipda, havo elektr toki bilan isitiladi, konveksion. Kameraning tex-nik ma'lumotlari quyidagicha:

Ish tuynugining o'lchamlari, mm	4000×1800
Quritish temperaturasi (rostlanadigan), °C	60–140
Ish temperaturasini saqlab turish usuli	avtomatik
Quritish vaqt (rostlanadigan), min	10–240
Kameraning ta'minlash kuchlanishi, V	220/380
Belgilangan quvvati, kW	14,5
Gabarit o'lchamlari, mm	
kameraniki	2400×1600×2500
boshqarish shchitini	400×300×900
Massasi, kg	
kameraniki	1400
boshqarish shchitini	45

UY-RO'ZG'OR SOVITKICHLARINI TA'MIRLASH VA NAZORAT QILISH UCHUN ASBOB-USKUNALAR

CX-2 ko'chma stendi. CX-2 stendi (17- rasm) uy-ro'zg'or sovitkichlarning buzuq joylariga sovitkich ega-siga uyida va ta'mirlash ustaxonalarida diagnoz qo'yish uchun mo'ljallangan.

Stendda sovitkichning quyidagi parametrlarini tek-shirish mumkin: ta'mirlash kuchlanishi, iste'mol qiladigan toki, izolatsiyasining qarshiligi, ish vaqtி koefitsiyenti, shkafning uchta nuqtasidagi temperatura.

Stendning texnik ma'lumotlari quyidagilar:

Nominal kuchlanishi, V	127/220
Iste'mol qiladigan quvvati, W	10
Nazorat qiladigan parametrlari	
o'zgaruvchan tok kuchlanishi, V	0-250
o'zgaruvchan tok, A	0-15
aktiv qarshiligi, Ω	0-100
Ish vaqtி koefitsiyenti	0-1
Izolatsiyasi qarshiligi, M Ω	0,5-10
Temperaturasi, °C	-20...+30
Gabarit o'lchamlari, mm	325×242×100
Massasi, kg	5



17- rasm. Sovitkichlarning ishlashini tekshirish uchun CX-2 ko'chma stendi.

Yordamchi ХД-1 qurilmasi. Qurilma (18- rasm) uy-ro'zg'or sovitkichlari va boshqa uy-ro'zg'or elektr texnikasi buzuqliklariga ularning egasi uyida diagnoz qo'yishi uchun mo'ljallangan. Qurilma komplektiga Ц-4324 universal o'lchash asbobi, qo'shimcha o'lchash va qayta ulash qurilmasi, ulash simlari to'plami va g'ilof kiradi.

Qurilmaning texnik ma'lumotlari quyidagilar:

Qurilma tipi	ko'chma, dastaki
O'lchashda aniqlik klassi	
o'zgarmas tokda	2,5
o'zgaruvchan tokda	4
O'lchash chegaralari:	
o'zgarmas tokka ko'rsatiladigan qarshilik, kΩ	0,2–5000
o'zgaruvchan tok mA	0,3–15000
o'zgaruvchan tok kuchlanishi, V	3–900
O'zgarmas tok kuchlanishi 500 V da izolatsiya qarshiligi, MΩ	0,5–10
Temperatura, °C	-20...+20
Ц-4324 jihozining ta'minlanishi	avtonom tarzda
Qo'shma qurilmaning ta'minlanishi:	
kuchlanish, V	220
chastota, Hz	50
Massasi, kg, ko'pi bilan	2

ПЧ-1 asbobining ko'chma komplekti. ПЧ-1 asbobining ko'chma komplekti uy-ro'zg'or sovitkichlarini sovitkich egasining uyida sayyor mexanik tomonidan kichik ta'mirlash ishlari uchun mo'ljallangan. Chamadonda quyidagilar bo'ladi: montaj-demontaj ishlarini bajarish uchun, shu jumladan, sovitkich shkafining ayrim uzel va detallarini almashtirish uchun slesarlik asbobi to'plami; rele, termoregulyator, lampa viklyuchateli, elektr patroni va hokazolarni almashtirish uchun sovitsiz agregatini almashtirish uchun kerak bo'ladigan narsalar.



18- rasm. XД-1 yordamchi qurilmasining tuzilishi.




19- rasm. Sovitish agregatlarini ta'mirlash uchun kichik gabaritli CP-1 stendi.

Sovitkichlarning buzuq joylariga diagnoz qo'yish uchun yordamchi XД-1 qurilmasi. U quyidagi parametrlarni nazorat qilishni ta'minlaydi: tok kuchi, ta'minlash kuchlanishi, elektr zanjirlarining qarshiligi, izolatsiya qarshiligi, kamera va muzlatish bo'limidagi temperaturalari.

Chamadonning gabarit o'lchamlari $450 \times 350 \times 150$ mm, massasi 8 kg.

Kichik gabaritli CP-1 stendi. CP-1 stendi (19- rasm) uy-ro'zg'or sovitkichlarining sovitish agregatini uyda, shuningdek, ko'chma va statsionar ustaxonalarda nuqsonli aniqlash va xlodon bilan to'ldirish uchun mo'ljalangan. Stend ko'chma tipda bo'lib, dastali va olinadigan qopqoqli metall korpusga ega.

Stendda kuchlanish past bo'lganda sovitish agregatining ishga tushishini, sovitish aggregatining kompresso-rini ishga tushirish relesisiz ishga tushishini tekshirish, ish tokini o'lhash, qadalib qolgan kompressorni yuqori



20- rasm. Qo'l etadigan chegara va qo'lning harakatlanish zonası:
a – gorizontal tekislikda; b – vertikal tekislikda.

ish texnologiyasi bilan aniqlanadigan asboblar joylashadi. Asboblarning doimiy joyini tanlashda ishlaydigan ishchining harakatlaridagi avtomatizm yordam beradi. Avtomatizm bu harakatlarni tez va tejamli bo‘lishini ta’minlaydi.

Charchashlikning kamayishi priyomlar(usullar) sonining qisqarishiga, shuningdek, harakatlanish yo‘lini qisqartirishga va ular tezligining oshirilishiga ham bog‘liq. Bundan tashqari, asbob og‘irligi kamayganda va harakatning bir maromda bo‘lishi ta’minlanganda charhashlik kamayadi.

Barcha harakatlarni vertikal (ko‘tarish, tushirish) bo‘yicha qilinadigan va gorizontal (radial-aylanma va yon tomonga) qilinadigan harakatga bo‘lish mumkin. Eng yengil harakat pastga va radial-aylanma harakat hisoblanadi. To‘g‘ri chiziqli harakatlar aylanma harakatlarga qaraganda ancha tejamsizligi, 45° burchak ostida qilinadigan harakat old va yon tomonga qilinadigan harakatdan tejamliroq ekanligi aniqlangan.

Mehnat fiziologiyasining bu talablari asboblar to‘plamini ish o‘rnida joylashtirishda hisobga olinishi kerak.

Mehnat harakatlari muammosi ish holati masalalari bilan chambarchas bog'liq. Ish holati ishlab chiqarish jarayoni shart-sharoitlari bilan aniqlanadi. Masalan, tik turib bajariladigan ish o'tirib bajariladigan ishga qara-ganda 3 marotaba ko'p energiya talab qiladi, egilib bajariladigan ish esa turib bajariladigan ishga qaraganda 4,6 marotaba ko'p energiya talab qiladi.

Tik turiladigan ish holati noqulayroq, chunki tana-ning o'zini ko'tarib turish uchun ko'p energiya sarf-lanadi, shuningdek oyoqlarda qon-tomir kasalliklari paydo bo'ladi. Biroq o'tirib bajariladigan ish xolati ham optimal (oqilona) hisoblanmaydi.

O'tirib uzoq vaqt ishlaganda qon aylanishi buziladi, orqa muskullar og'riy boshlaydi va hokazo. O'zgaruv-chan holatni (tik turib va o'tirib) eng oqilona holat deb hisoblash lozim.

Istalgan holatda ishlaganda shuni esda tutish kerakki, tananing tez-tez 20° dan ortiq egilishi natijasida miyaga qon quyiladi, muskullarga va qorin bo'shilig'i paylariga o'ta yuklanish ta'sir qiladi. Shuning uchun o'rindiqlar va ish o'rinalining balandligi bunday egilishlarga iloji boricha yo'l qo'ymasligi juda muhimdir. Texnologik jarayonlarning navbatma-navbat kelishini shunday tanlash kerakki, tana bir smenada 600 tadan ortiq egilmashin.

Stullar o'rindig'inining rostlanadigan balandligi, shuningdek, ish maydonchalarining joylashishi (21- rasm) ish-lovchilarga mumkin qadar qulay mehnat sharoitlarini yaratishga imkon beradi.

Mehnat jarayonida harakat va kuchlarni tejash muayyan ish operatsiyasi bilan uzviy ravishda bog'lanmagan harakatlarga yo'l quymaslik, «ortiqcha» harakatlarni bar-taraf qilish, og'irlilik kuchidan foydalanish, tananing mumkin qadar kam egilishiga shart-sharoit yaratib berish va iloji boricha erkin holatni ta'minlashdan iborat bo'ladi.



21- rasm. Asboblar bilan ishlayotganda ish maydonchasi sathi.

Asboblar sifatiga qo'yiladigan yuqori texnik talablar ularning estetik va mehnat madaniyatining yuqori bo'lishini ta'minlashga imkon beradi.

Asboblarga qo'yiladigan texnik talablar bilan bir qatorda, hozirgi vaqtida ularning shakli, rangi, simmetrikligi, proporsiyasi, suyriligi, chiroyliligi va hokazolarga ham estetik talablar qo'yiladi.

Asbobning qulay va chiroyli dastalarini yaratish bo'yicha ishlar olib borilishi zarur. Dastalar texnologik jarayonlarning anatomik va fiziologik talablariga javob berishi kerak va qo'l kafti shakliga muvofiq bo'lgan chuchurchalar yoki chiqiqlari bor original konstruksiyaga ega bo'lishi lozim. Masalan, ikkilamchi zanjirlarni montaj qilish ishlarini bajarish uchun mo'ljallangan asboblarning (otvertkalar, kuchlanish indikatori va hokazolar) plastmassa dastalari loyihasi tuzilgan. Ularning shakli va joylashishi qo'lni kam charchatadi.

Asboblar dastasi konstruksiyasining noto'g'ri tanlanishi organizmda og'riqlar (muskullarning cho'zilishi, titrash kasalligi va hokazolar) paydo qiladi. Bunday dasitali asboblardan foydalilanilda mehnat unumi pasayadi, asboblarning yaroqlilik muddati qisqaradi, shuningdek, ta'mir sifati yomonlashadi.

Asboblar dastasini kaftlar sirpanadigan dekorativ qoplamlalar bilan qoplash mumkin emas. Dastalar ushlanganda «yoqimli» va bir oz g'adir-budur bo'lishi kerak. Qirrali va o'tkir uchlari bo'lgan polosa po'latdan tayyorlangan, shuningdek silindr va shar shaklidagi dastalar nuqsonli dastalar hisoblanadi. Ular qo'lning funksional qismlariga botadi. Odatdagi dastaning qirqimi yumaloq yoki oval shaklida bo'lib, mehnat jarayonida sekin-asta qo'llar og'riydigan bo'lib qoladi.

Dastaki asboblarni mexanizatsiyalashtirish bo'yicha katta ishlar olib borilmoqda. Elektrofikatsiyalangan va pnevmatik asboblar ayniqsa ko'p ishlab chiqilgan. Ammo dastaki asboblarni butunlay chiqarib tashlab bo'lmaydi. Uy-ro'zg'or texnikasini ta'mirlash texnologiyasida dastaki asboblar yetakchi o'rinn egallaydi.

Uy-ro'zg'or elektr jihozlari va mashinalarini qism-larga ajratish va yig'ish jarayonida slesarlik-yig'ish asboblaridan foydalanilganda quyidagilarni nazarda tutish kerak:

- ish paytida detallarni, ayniqsa yuzasi silliq ishlangan detallarni, shuningdek, valiklar, shpilkalar, boltlar va hokazolarning uchiga bevosita bolg'a bilan urish qat'iy man etiladi;

- vintlarni burab chiqarish va burab kiritish uchun tig'i (uchi) yeyilmagan va qalinligi kesik kengligiga teng bo'lgan otvertkalardan foydalanish lozim;

- podshipnik korpusi ichida joylashgan podshipniklar va vtulkalarni press yoki opravkalar vositasida presslangan joyidan chiqarish va presslab o'rnatish tavsiya etiladi, chunki bolg'a bilan urganda detallarda deformatsiyalanish, sinish, ba'zan esa sezilmaydigan darzlar bo'lishidan tashqari, qiyshayishi xam mumkin, natijada o'tqazish o'lchamlari va keyinchalik yig'ganda birikish joylarining mustahkamligi buziladi;

— uzellarni yig‘ishda ta’mirlangan barcha detallar toza bo‘lishi kerak; ishqalanadigan yuzalar yig‘ish oldidan moylanishi lozim; yirtilgan va ezilgan qistirmalarni almashtirish zarur.

6- mavzu

ZAMONAVIY SOVITKICHLARNI TA’MIRLASH VA ISHLATISH

Sovitkichni tarmoqqa ulashdan avval, uni shnuri shikastlanmaganligiga hamda tarmoqning nominal kuchlanishi sovitkich pasportida qayd etilgan kuchlanishga teng ekanligiga to‘la ishonch hosil qilish lozim.

Sovitkichni qayta tarmoqqa 5 min. dan so‘ng amalga oshirish mumkin. sovitkichni birinchi marta ulagandan keyin 2–3 soat o‘tgach unga yangi yoki muzlatilgan mahsulotlar joylashtirilishi mumkin.

Sovitkichlar (22- rasm) foydalanish qulay bo‘lgan joyga o‘rnatalishi lozim. Ammo issiqlik manbalariga yaqin joylarga joylashtirishga ruxsat etilmaydi. Sovitkichni unumli ishlashini ta’minlash uchun uning atrofida xavo aylanadigan bo‘lishi lozim. Sovitkich asosdan (poldan) 2,5 sm baland ko‘tarilgan holda o‘rnatalishi lozim.

Xavfsizlik talablari:

- sovitkichni shnuridan tortib o‘chirish qat’iyan man etiladi;
- sovitkichni ko‘chirib o‘rnatish paytida uni ezilib qolishiga hamda shnur shikaslanishiga yo‘l qo‘yilmasligi lozim;
- sovitkich ulangandan keyin uni muzlatish kamerasiga qo‘l bilan tegmang, teringiz kamera sirtiga yopishib qolishi mumkin;



22- rasm. Zamonaviy sovitkichlarning umumiy ko'rinishi.

- sovitkich ichini tozalayotganda uni tarmoqdan uzib qo'yish lozim. Uni ho'l qo'lingiz bilan ulamang, aks holda elektr tokidan shikaslanishingiz mumkin;
- muzlatish kamerasiga shisha idishlar qo'y mang, chunki uni ichidagi mahsulotlar muzlashi natijasida kengayishi tufayli shisha idish yorilib ketishi mumkin;
- muz tayyorlovchi avtomatik bo'limi ichiga qo'lingizni tegib ketishidan ehtiyot bo'ling, aks holda qo'lingizni shikastlantirishingiz mumkin.
- sovitkich eshigiga osilish, o'tirish mumkin emas. Bu eshikning buzilishiga yoki sovitkichni ag'darilib tu shishiga sabab bo'lishi mumkin;
- imkoniyati boricha sovitkich uchun alohida rozet-kadan foydalanish lozim;
- tarmoq shnuri shikaslanganda uni mutaxassis almashtirishi maqsadga muvofiqdir.

Uchrashi mumkin bo'lgan nosozlik va ularni bartaraf etish usullari

Nosozlik turi	Sababi	Bartaraf etish usuli
1	2	3
Kompressor ishlamaydi	Sovitkichni ishga tushirish tugmachasi bosilmagan	Tugmachani bosib sovitkichni ishga tushiring.
	Sovitkich muzsizlanish holatida	Shunday bo'lishi kerak. Sovitkich avtomatik ravishda o'zi o'chib qayta ulanadi.
	Ta'minlash shnuri tarmoqqa ulanmagan	Ta'minlash shnuri rozetkaga biriktirilganiga ishonch hosil qiling.
Kompressor haddan tashqari ko'p va uzoq ishlamoqda	Atrof-muhit harorati yuqori	Bunday holatlarda sovitkichni uzoq ishlashi tabiiy hol hisoblanadi.
	Sovitkich bundan avval qisqa mudatga o'chirib qo'yilgan	Sovitkich tarmoqqa ulangandan keyin me'yordagi holatiga erishish uchun bir necha soat kerak bo'ladi.
	Muz tayyorlash uchun avtomatik bo'limi ishlayapti	Muz tayyorlash bo'limining ishga tushishi muzlatkichni ish vaqtini uzaytiradi.
	Bundan avval sovitkichga iliq yoki issiq mahsulotalar qo'yilgan	Issiq mahsulotlar tufayli sovitkichni me'yordagi haroratga chiqishiga bir qancha vaqt kerak bo'ladi.
	Eshigi tez-tez yoki uzoq vaqt ochilib turgan.	Sovitkich ichiga kirayotgan issiq havo ish vaqtini uzaytiradi.

1	2	3
	Sovitish va muzlatish bo'limlari eshiklari qiya ochiq qolgan	Sovitkichning eshiklari sozlanganligiga va mahsulotlar eshikning yopilishiga xalaqit bermayotganligiga ishonch hosil qiling.
	Juda past harorat o'rnatilgan	Harorat rostlagichiga nisbatan yuqori haroratga o'rnating.
	Sovitish va muzlatish bo'limi zichlashtir-gichlari shikastlangan yoki ifloslangan.	Tozalang yoki zichlash-tirgichni almashtiring Sovuqni chiqib ketishi natijasida sovitkich uzoq vaqt ishlashi mumkin.
Sovitkich shovqin bilan ishlayapti	Zamonaviy sovitkichlar katta hajmga ega bo'lib, barqaror haroratni ta'minlaydi.	Shovqin yuqori bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi.
Tebranish yoki silkinish	Asos tekis emas. Sovitkich ozgina surilganda muzlatgich silkinadi.	Asosni yetarli darajada tekisligi va mustahkamligiga ishonch hosil qiling.
	Sovitkich ichidagi buyumlar silkinyapti	Unday buyumlarni sovitkichdan olib tashlang.
	Sovitkich devorlariga buyumlar tegib turibdi	Ularni devorga yoki jovonga tegmaydigan qilib qo'ying.
Muzlatkich devorlarining ichki qismida nam yig'ilyapti	Issiq va sovuq harorat qirov hosil bo'lishiga va ichki terlashga sabab bo'ladi	Shunday bo'lishi kerak.
	Eshigi qiyalatib ochib qo'yilgan	Eshikni zich yopib qo'ying.

MIKROPROTSESSORLAR VA UY-RO'ZG'OR TEXNIKASINI ISHLATISH

Hozirgi vaqtida jahon amaliyotida, ayniqsa uy-ro'zg'or jihozlari va asbob-uskunalari yaratish va konstruksiyalash sohasida mikroprotsessor texnikasi tobora keng ko'lamda qo'llanilmoqda.

Issiqlik rejimlarini avtomatlashtirish va birinchi navbatda stabillash uchun uy-ro'zg'or jihozlari hamda uy texnologik asbob-uskunalarida odatda chiziqlimas ikki pozitsiyali regulyatorlar qo'llaniladi. Bunga asosan ularning uzluksiz ishlaydigan regulyatorlarga nisbatan arzonligi va oddiy tuzilganligi sabab bo'ladi. Biroq chiziqlimas regulyatorlar rostlash jarayoni sifatini shashubhasiz yomon ta'minlaydi, chunki avtotebranish rejimida ishlaydi, bundan tashqari jihozlar va asbob-uskunalarini ishlatganda ular ishonchlimas. Bularning hammasi amalda foydalanish jarayonida uy-ro'zg'or jihozlarini qayta-qayta ta'mirlash zaruriyatini tug'diradi va demak, ularning ekspluatatsion narxini sezilarli darajada ortishiga olib keladi. Binobarin, jihozlarning ishonchligi kamayadi. Ravshanki, mikroprotsessor texnikasiga o'tish va bunga bog'liq uzluksiz ishlaydigan regulyatorlardan foydalanish imkoniyati mavjud muammoni bartaraf qiladi.

Uy-ro'zg'or elektr jihozlarida mikroprotsessorlarning ishlatalishi jarayonlarni maqsadga muvofiq, ishonchli va nisbatan arzon nazorat qilish hamda rostlashni ta'minlashga imkon beradi.

Biroq, yetarli darajada ishonchli bo'limgan va ancha qimmat diskret elektron, elektromagnit hamda mexanik sistemalar o'rniga tez o'zgara oladigan elektron boshqarish sistemasidan to'la ravishda foydalanib bo'lmayapti,

chunki tegishli tejamli interfeyslar-mikroprotsessorlar va jihozlarning bajarish organlari (nasoslar, isitkichlar va hokazolar) orasida o‘zaro aloqani amalga oshiruvchi elementlar yetishmaydi yoki umuman yo‘q. Mikroprotsessorlarga uy-ro‘zg‘or elektr jihozlarida bo‘ladigan jarayonlar xaqida signallar uzatadigan sezgir datchik-sensorlarni tanlash ham cheklangan. Bu hol to‘la avtomatlashtirilgan kir yuvish mashinalari, idish yuvish mashinalari, kiyim quritish mashinalari va boshqalarning rivojlanishini ko‘p darajada to‘xtatib turibdi.

8- mavzu

UY-RO‘ZG‘OR ELEKTR JIHOZLARI VA MASHINALARINING SHOVQIN DARAJASINI O‘LCHASH

Yangi uy-ro‘zg‘or texnikasini yaratishda shovqin darajasi eng muhim sifat ko‘rsatkichlaridan biri sifatida albatta hisobga olinishi kerak. Uy-ro‘zg‘orda ishlatiladigan elektr mashinalar va jihozlar sonining ortishi bilan xonardonlarda shovqin ortmoqda. Shovqin inson organizmiga ta’sir qiladi va mexnat unumini kamaytiradi. Kuchli tovushlar va uzoq davom etadigan shovqin ta’sirida insonda turli kasalliliklar paydo bo‘ladi.

Shu narsa qiziqarlik, shovqin hodisalari akkumulatsiya – to‘planish xossalari ega, ya’ni ular organizmda to‘planib inson asab sistemasini tobora ko‘p va qattiq ezadi. Lekin hamma shovqinlar ham bir xil ta’sir ko‘rsatmaydi. Shovqin chastotasining spektri qanchalik yuqori bo‘lsa, u insonga shunchalik katta darajada ta’sir ko‘rsatar ekan. Masalan, tovushning 85 dB dan yuqori chastotali darajasi bosh miya qobig‘ini tormozlaydi va qobiq ostidagi asablarni qo‘zg‘atadi.

Tovush darajasi shovqin manbaining quvvatiga bog'liq.

Elektr jihozlarning xonada ishlashi jarayonida tovush darajasi va amalda bo'lishi mumkin bo'lgan shovqinga qarab barcha elektr mashinalar shartli ravishda quyidagi toifalarga bo'linadi: shovqinsiz ishlaydigan mashinalar – 35 dB gacha; kam shovqin chiqaradigan mashinalar – 35–55 dB; normal mashinalar – 55–75 dB.

Intensivlik (yoki tovush kuchi) tovush to'lqini bilan to'lqin harakati tarqalishiga perpendikulyar joylashgan 1 sm yuza orqali 1 s ichida ko'chiradigan energiya miqdori bilan o'lchanadi.

Tovush intensivligini o'lhash birliklari sifatida W/sm^2 qabul qilingan. Tovush to'lqinining energiyasi tebranish amplitudasining kvadratiga, tovush chastotasining kvadratiga va tovush tarqaladigan muhitning zichligiga proporsional. Tovush energiyasining oqimi E va tovush intensivligi I orasida bog'lanish mavjud: $E = I/c$ (c – tovush tezligi; havoda $c = 343 \text{ m/s}$). Tovush bosimi deb tovush to'lqinining sferaning ayni nuqtadagi o'rtacha bosimiga nisbatan hosil qiladigan bosimning qo'shimcha davriy o'zgarishiga aytildi. Tovush bosimi birligi – Pa (Paskal).

Eng kichik va eng katta tovush bosimlari va tovush kabi qabul qilinadigan intensivliklar bo'sag'a bosim va intensivliklar deb ataladi. 1000 Hz chastotali tovushning eng kichik eshitilish bo'sag'asining bosimi $p = 2 \cdot 10^{-5} \text{ Pa}$ va intensivligi $I_0 = 10^{-20} \text{ W/m}^2$ ga teng. Juda baland tovushlar eshitish organlarida og'riq paydo qiladi. 1000 Hz chastotali tovush uchun og'riq paydo bo'ladigan bo'sag'a $p_0 = 20 \text{ Pa}$ va $I_0 = 10^{-8} \text{ W/m}^2$ ga teng. Shunday qilib, 1000 Hz chastotali tovushni eshitish sohasi tovush bosimi bo'yicha $1 : 10^6$ nisbat va intensivligi bo'yicha $1 : 10^{12}$ nisbat bilan xarakterlanadi. Shu sababli tovush bosimi va tovush intensivligi absolut qiymatlar-

ning ko'p xonali sonlari bilan emas, balki bu qiyatlar-ning 1000 Hz chastotada eshitish bo'sag'asiga mos kela-digan qiyatlariga nisbatining logarifmi bilan ifodala-nadi. Bu energetik munosabatlar tovush bosimi, inten-sivlik yoki tovush kuchining (dB) darajasi deb atalgan.

Shunday qilib, detsibel – nisbiy tovush yoki elektro-magnit quvvatni (nol quvvat deb ataladigan, shartli deb qabul qilingan qandaydir quvvat R_0 ga nisbatan) baho-lash uchun qabul qilingan logarifmik birlikdir. O'lcha-nadigan va nol quvvat darajalarining farqi, agar ular nisbatining o'nli logarifmi 0,1 ga teng bo'lsa, 1 dB bo'ladi.

Shovqin o'lchagichlar tovush darajasini o'lhash uchun mo'ljallangan. Hozirgi vaqtida shovqin o'lchagichlarning ikki tipi mavjud: normal aniqlikdagi va presezion shov-qin o'lchagichlar. Normal aniqlikdagi shovqin o'lchagichdan korxona, transport va hokazo joylarda shovqin-larni o'lhashda foydalanish mumkin, chunki bu yerlar-da o'lhash sharoitlari o'lhash asboblarining yuqori aniqlikda ishlashiga imkon bermaydi.

Presezion shovqino'lchagich laboratoriyanadagi shov-qinni o'lhash uchun mo'ljallangan. Bunda oldindan yozilgan shovqinlar (yoki original manba shovqinlari) berk yoki reverberatsion (shovqin mumkin qadar ko'p qaytariladigan) kameralarda tovush qaytadan tiklanadi va tovush maydoni katta aniqlik darajasiga ega bo'ladi. Ikkala shovqino'lchagich statsionar va impulsli shov-qinlar uchun mo'ljallangan.

Shovqino'lchagich ko'rsatishini tovush darajasi deb atash va tuzatish xarakteristikasini ko'rsatib (masalan, 80 dBA) dB larda ifodalash qabul qilingan.

Turli jihozlar bilan o'lchanan natijalarni taqqoslash mumkinligi eshitiladigan tovushga muvofiq bo'lishiga qaraganda texnika uchun ancha muhim deb hisoblash qabul qilingan.

Tovush darajasini o'lhash uchun Ш-71 tipidagi shovqino'lchagich juda ixcham va qulay jihozdir. U akustik shovqinlarning effektiv qiymatlarini 30–140 dB chegarada o'lhash uchun mo'ljallangan.

Jihozda МД-68 tipidagi elektrodinamik isitkichli mikrofon qo'llanilgan.

Shovqino'lchagichda ikkita A va C chastota xarakteristikali baholash filtri bor; bundan tashqari o'lchanadigan shovqin spektrini chastotaviy analiz qilish uchun tashqi polosa filtrlarini kiritishga yo'l qo'yiladi.

Shovqino'lchagichning ish sharoitlari: atrofdagi havo temperaturasi –10 dan +40 °C gacha.

Nisbiy namligi 90% gacha (25 °C temperaturada).

Jihoz uchta 373 tipidagi element komplektidan ta'milanadi. Iste'mol qiladigan toki 160 dan 200 mA gacha.

Tovush darajasining parametrlarini o'lhash aniqligi bo'yicha Ш-71 normal aniqlikdagi shovqino'lchagichlar jumlasiga kiradi.

O'lhashdagи xatolik ko'pi bilan $\pm 2,0$ dB.

Jihozning ish holatidagi massasi 205 kg. Shovqinni uyda o'lchaganda shovqino'lchagichdan ko'chma jihoz sifatida foydalanish juda qulay. U yengil va ishlatish oson.

Shovqin xarakteristikalarini aniqlashning quyidagi metodlari aniqlangan:

- bo'sh tovush maydonida (tovush pasaytiradigan kameralar, tovush ko'p yutiladigan xonalar yoki ochiq fazoda);
- qaytgan tovush maydonida (reverberatsion kameralarda);
- namunali shovqin manbai yordamida odatdagи xonalarda;
- mashinaning tashqi konturidan 1 m narida.

Uy-ro'zg'or elektr jihozlari va mashinalariga davlat standartlari hamda ta'mirlangan uy mashinalari va jihozlariga respublika standartlari har bir buyum turi uchun yo'l qo'yiladigan shovqin darajasini belgilaydi. Uy-ro'zg'or elektr buyumlarini ta'mirlaydigan barcha ustaxonalar ta'mirlangan har bir buyumning yo'l qo'yiladigan tovush darajasini qat'iy tekshirishi kerak.

Uy-ro'zg'or texnikasi ta'mirlanadigan ixtisoslashtirilgan korxonalarda tovush bosimini o'lhashga mo'ljalangan xona nazarda tutilishi lozim. Bu xona shovqin chiqadigan sexlar va umumshahar magistrallaridan mumkin qadar uzoq bo'lgan juda tinch joyda joylashishi kerak.

Iloji bo'limgan hollarda xona topish masalasi va sovitkichlar, changso'rgichlar va boshqalarni bir joydan boshqa joyga ko'chirish qiyinligini hisobga olib shovqin o'lchanadigan xonani goloidli suv sizib chiqishini aniqlagich kamerasi bilan birlashtirish mumkin; buning uchun kamera yuzasini kamida 16 m^2 gacha (sovitkichlar va kir yuvish mashinalari uchun) kengaytirish lozim.

Agar tovush pasaytiradigan yoki reverberatsion kamerani qurish imkonni bo'lmasa, o'lhash uchun mo'ljallangan xonani mavjud tovush yutuvchi materiallarning (shisha-tola, shlak-paxta, namat, akustik suvoq) istalgani bilan tovushdan izolatsiya qilish zarur.

Tovush bosimining darajasi namunali shovqin manbayi yordamida yoki shovqinni mashina yuzasidan 1 m masofada (dBA da) aniqlash metodi bilan o'lchanadi.

Uy-ro'zg'or elektr jihozlari va mashinalarining tovush darajasini ta'mirlash korxonalari va ular egasining uyida optimal o'lhash metodlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarga yakun chiqarib quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

1. Ta'mirlash korxonalarida maxsus xonaning bo'lish imkoniyatining cheklanishini hisobga olib tovush darajasini odatdagি xonalarda mashinaning konturidan 1 m masofada taxminiy aniqlash metodi yordamida o'lhash tavsija etiladi.

Ko'rsatilgan metod yordamida o'lchanganda respublik standartlari texnik talablarini bajarish uchun zarur bo'lgan aniqlik qoniqtiriladi.

2. Agar umumiy shovqin (mashina shovqini va xalaqitlar shovqini) tovush bosimining darjasini va xalaqitlar darjasini orasidagi tafovut 4 dB dan kam bo'lsa yoki xalaqitlar darjasini juda o'zgarib tursa, tovush darajasini o'lhash mumkin emas. Bunday holda ustaxonalarda o'lhash o'tkaziladigan xona tovushdan eng oddiy usulda izolyasiya qilinishi kerak: buning uchun devorlar va eshik tovushdan izolatsiyalovchi mavjud material-larning istalgani (paxta, namat, shisha tola va boshqalar) bilan 12–13 sm qalinlikda qoplanadi va yuqorida ko'r-satilgan metod yordamida o'lchanadi.

Uyda o'lchaganda xalaqitlar darjasini juda kichik bo'lgan paytni tanlash va tovush darajasini mashinaning tashqi konturidan 1 m masofada taxminan aniqlash metodidan foydalanish zarur.

3. Kichik gabaritli jihozlarning shovqin darjasini o'lhash uchun (masalan, elektr ustalarlar) balandligi 190 sm va ko'ndalang kesimning yuzasi 800 sm^2 bo'lgan kamera tavsija etiladi. Bunday holda, uchta devori tovushni to'la qaytaradigan va bitta devori tovushni yutadigan, kameraning bunday tuzilishi tufayli tovush darjasini bitta nuqtada o'lchanadi va o'lhash natijalari-ning xalaqitlar shovqiniga butunlay bog'liq bo'lmasligiga erishiladi.

4. Tovush drajasini o'lhash uchun hozirgi vaqtda mavjud jihozlardan statsionar sharoitlarda ИШВ-1

shovqin va vibratsiya o'chagichi tavsiya etiladi. Uning yordamida tovush darajasidan tashqari titrashni aniqlash, shuningdek, tovush darajasi hamda titrash bo'yicha chastotalar polosasida nuqsonlarni aniqlash mumkin.


Tovush darajasini uyda o'chash uchun statsionar sharoitlarda ham foydalanish mumkin bo'lgan Ш-71 (yoki unga o'xshash) shovqin o'chagichi tavsiya etiladi.

9- mavzu

MIKROTO'LQINLI PECHLARNING ISHLASHI

Mikroto'lqinlar radio va televizion eshitirishlarda qo'llaniladigan elektromagnit to'lqinlar kabi energiya turi hisoblanadi.

Odatda, elektromagnit to'lqinlar atmosfera orqali tarqalib fazoda izsiz yo'qoladi. Ammo mikroto'lqinli pechlarda (23- rasm) magnetron bo'lib, uning tuzilishi shunday loyihalashtirilganki mikroto'lqinlar energiyasidan foydalanish imkoniyatini beradi. Magnetronga berilayotgan elektr energiya mikroto'lqinli energiyani hosil qilish (generatsiyalash) uchun ishlataladi



23- rasm. Mikroto'lqinli pechning umumiy ko'rinishi.

Ushbu mikroto'lqinlar tirqish orqali ozuqa tayyorlash hududiga uzatiladi. Pechning quyi qismida aylanuvchan yoki qo'zqalmas patnis joylashgan. Mikroto'lqinlar pechning metall devorlari orqali o'ta olmaydi, ammo turli xil mikroto'lqinli pechlarda ishlataladigan idishlar tayyorlashga mo'ljallangan chinni, shisha va qoqoz idishlar orqali o'tishi mumkin.

Mikroto'lqinlar ovqat tayyorlanadigan idishlarni isitmaydi, ular ovqat isishi natijasida isishi mumkin.

Mikroto'lqinli pechka tanlangan joyga tekis gorizontal sirtga asosdan kami bilan 85 sm ga balandga, yuqoridan kami bilan 30 sm, orqasidan 10 sm tirqish qoldirilgan holda o'rnatilishi lozim. Pechka ehtiyyotsizlik tufayli tushib ketmasligi uchun sirtini chekka qismidan kami bilan 8 sm ichkariga joylashtirilishi lozim. Pechkaning ustki qismi va yon devorlarida shamollatuvchi tirqishlar joylashtirilgan.

Bunday tirqishlar berkilib qolishi pechkaning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Mikroto'lqinli pechlarda ovqat pishirish va tayyorlashda boshqarishni maksimal osonlashtirish uchun 5 bosqichli quvvat darajasi mavjuddir.

Quvvat bosqichi	Chiqish quvvati	Ishlatilishi
1	2	3
Yuqori	100%	<ul style="list-style-type: none"> - suvni qaynatish; - go'shtli qiymadan tayyorlangan mahsulotni qizartirib pishirish; - baliq, parranda, sabzavotlar pishirish; - «yumshoq» go'shtdan alohida mahsulot pishirish

1	2	3
O'rtal yuqori	80%	<ul style="list-style-type: none"> — barcha mahsulotlarni isitish; — go'shtni katta bo'laklarga hamda parranda go'shtini butunligicha pishirish; — qo'ziqorin va dengiz mahsulotlaridan tayyorlash; — tarkibida pishgan tuxum bo'lgan mahsulotlarni pishirish
O'rtacha	60%	<ul style="list-style-type: none"> — non va konditor mahsulotlarini tayyorlash; — tuxum pishirish; — shirin kremlar tayyorlash; — guruch va sho'rvalar tayyorlash
Muzdan tushirish (o'rtacha past)	40%	<ul style="list-style-type: none"> — barcha mahsulotlarni muzdan tushirish; — shokolad va sariyoqni eritish; — qattiq go'shtli mahsulotlarini tayyorlash
Past	20%	<ul style="list-style-type: none"> — sariyoq va pishloqlarni yumshatish; — muzqaymoqni yumshatish; — achitqich qo'shilgan xamirni oshirish.

10- mavzu

UY-RO'ZG'OR ELEKTR JIHOZLARI VA MASHINALARINI TA'MIRLASHDA MEHNAT XAVFSIZLIGI QOIDALARI

Umumiyl holatlar

1. Elektr tarmoqlariga ulanadigan apparaturalar bilan ishlaydigan elektrotexnik xodim texnik ekspluatatsiya qilish, uy-ro'zg'or elektr jihozlari va mashinalariga xizmat ko'r-satish va ta'mirlash xavfsizlik qoidalarini, ushbu instruksiyani bilishi hamda uning talablariga rioya qilishi kerak.

2. Jihozlar, elektr simlari buzuq bo'lganda, texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari xavfsizlik texnikasiga oid instruksiyalar buzilganda uy-ro'zg'or elektr jihozlari bilan ishlagan paytda elektr toki bilan jarohatlanish xavfi tug'ilishi mumkin.

0,06 A li tok kuchi inson xayoti uchun xavfli, 0,1 A tok esa halokatlil hisoblanadi.

3. Kuchlanishi 36 V dan ortiq bo'lgan jihozlar bilan ishlaganda xodimlarni tok bilan jarohatlanishdan saqlash uchun elektr tokidan izolatsiyalovchi himoya vositalaridan (dielektrik qo'lqoplar, dastasi izolatsiyalangan asbob-uskunalar va hokazolar) foydalanishlari kerak. Himoya vositalari «Elektr qurilmalarida ishlataladigan himoya vositalaridan foydalanish va ularni sinash qoidalari»ga javob berishi kerak.

4. Kavsharlagichlar, kavshar eritiladigan vanna va ko'chma (dastaki) yoritkichlarni ta'minlash uchun 36 V dan ortiq bo'lmagan kuchlanishdan foydalanish kerak. Birlamchi va ikkilamchi cho'lg'amlari elektr jihatdan cho'lg'amlari alohida-alohida bajarilgan pasaytiruvchi transformator yoki 36 V li generator xavfsiz kuchlanish manbayi bo'lishi mumkin.

Xavfsiz kuchlanish manbayi sifatida avtotransformatorlar ishlatalish va tarmoq kuchlanishini 36 V gacha pasaytirish uchun potensiometr hamda reostatlardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

5. Ushbu qo'llanmada nazarda tutilmagan muvaqqat xarakterga ega bo'lgan ishlarni bajarishda sex (ustaxona) boshlig'i muvaqqat qo'llanma ishlab chiqadi va uni xavfsizlik texnikasi muxandisi bilan kelishib oladi hamda bu ishlarni boshlash oldidan ish bajaruvchilarga instruktaj beradi va mehnat xavfsizligi jurnaliga yozib rasmiylash-tiradi.

6. Ishga yangidan kirgan xodimlarni ushbu yo'riq-nomani bilishini va uy-ro'zg'or mashinalari hamda elektr jihozlarini ishlatish va ta'mirlashga oid xavfsizlik qoidalarini bilishni oldindan tekshirmsandan turib ularning mustaqil ishlashlariga ruxsat etish man etiladi.

7. Elektr jihozlar va boshqa apparatlar bilan isitish sistemalari, suv quvuri (vodoprovod), yerga ulash konturi, yerga ulangan asbob-uskunalar va shunga o'xhash sistemalar yaqinida ishlashga, ishlovchining tok o'tadi-gan qismlar bilan yer orasiga tushib qolishining oldini olish uchun, yerga ulangan qismlar oldindan ixotalangandan keyingina ruxsat etiladi.

8. Qalay-qo'rg'oshin kavsharlar bilan kavsharlash va oqartirishda qo'rg'oshin bug'lari hosil bo'ladi. Qo'rg'oshin organizmga yomon ta'sir qiladi, shuning uchun tarkibida qo'rg'oshin bor kavsharlar bilan doimo kavsharanadigan uchastkalarda eski havoni chiqarib yangi havo kiritadigan ventilyasiya zarur, ish o'rinalarida esa eski havoni so'rib olgichlar bo'lishi kerak. Qalay-qo'rg'oshinli kavsharlar bilan ishlashda nazarda tutilgan ishlab chiqarish va shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish kerak.

Tarkibida qo'rg'oshin bor kavsharlar bilan kavsharanadigan xonalarda ovqatlanish va chekish qat'ian man etiladi.

Tushlikdan oldin qilinadigan tanaffus paytida va ish tugagandan so'ng qo'lnisovun bilan issiq suvda yaxshilab yuvish zarur.

Ish kiyimini ko'cha va uy kiyimidan alohida saqlash kerak. Ish kiyimini uyg'a olib ketish taqilanadi. Ish kiyimini uyda yuvish man etiladi.

9. Izolatsiyani kuydirib tozalaganda ish o'rnidagi havoni ifloslaydigan va kishi organizmiga yomon ta'sir ko'r-satadigan bug' va tutun ajralib chiqadi. Masalan, rezina, polixlorvinil va boshqa bir qator izolyasion materiallar

yonganda, nafas yo'llarini, ko'z va terini yallig'lantiradigan, shuningdek, organizmga umumiy zararli ta'sir ko'rsatadigan moddalar hosil bo'ladi.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib shuni aytish kerakki, kuydirish, simlar uchini oqartirish kabi ishlarni eski havoni so'rib oladigan mahalliy ventilyasiya ishlab turgan vaqtdagina bajarishga ruxsat etiladi.

10. Ish o'rinalarining yoritilishiga alohida ahamiyat berish zarur, chunki bu joylarda ishlovchilarning ko'zi zo'riqadi va diqqat talab qilinadi.

Ishlab chiqarish xonalarida umumiy yoritish ham mahalliy yoritish ham nazarda tutilishi kerak, shu bilan birga yoritish chiroqlari ishlovchilar ko'zini lampalarning qamashtiradigan ta'siridan saqlashi kerak. Yoritkichlar shunday joylashtirilishi kerakki, ish bajariladigan yuzalarga soya tushmasin.

Ishchi xodimning ish boshlashdan oldin bajaradigan vazifalari

11. Ish boshlashdan oldin:

- a) ish asboblarining (otvertkalar, ploskogubsalar, omburlar, maxsus shchuplar va hokazolarning) ishga yaroqliliginini;
- b) kavsharlagichlar, ko'chma lampalar, kavshar eritiladigan vannalar va elektrlashtirilgan boshqa asboblarning buzuq emasligini;
- d) shaxsiy himoya vositalarining (dielektrik qo'lqoplar, dastasi izolatsiyalangan asboblar va hokazolarning) ishga yaroqliliginini va ularni sinash muddatlarini;
- e) sxemalarni yig'ish va elektr bilan ta'minlash simlari uchun qo'llaniladigan simlar izolyasiyasining butunligini (simlar izolatsiyasi ish kuchlanishiga muvofiq bo'lishi kerak);

f) saqlagichlar, shtepselli ajratkichlar, uzaytirgichlar, rozetskalar, viklyuchatellar – klemniklar va ularning ish kuchlanishiga muvofiqligini;

g) tok qabul qilgichlar (elektr dvigatellar, uy-ro'zg'or elektr jihozlari va mashinalari va hokazolar) korpusini yerga ulaydigan qurilmaning bor-yo'qligi va uning buzuq emasligini;

h) mahalliy ventilatsiyaning ishga tushirilishini tekshirish zarur.

Ishchi xodimning ish vaqtidagi vazifalari

12. Apparatura va asbob ish o'rnida qulaylik hamda xavfsiz ishlashni hisobga olgan holda joylashtirilishi kerak.

13. Jihozlarning joylashishi ish o'rnida o'zgartirilganda, jihozlar ta'minlash manbayidan ajratilishi kerak.

14. Sxemani yig'ish yoki unga qisman o'zgarishlar kiritish ishlari faqat barcha ta'minlash kuchlanishlari uzilgandan keyingina bajarilishi lozim.

15. Uy-ro'zg'or texnikasini ta'mirlashda ish kuchlanishiga muvofiq bo'lgan uzel va detallar, material va apparaturalardan foydalanish zarur.

16. Sxema simlarining uchlari faqat ulash uchun zarur bo'lgan uzunlikda tozalanadi. Sim uchlari tasodifan ajralib ketmasligi yoki kontaktlar kuymasligi uchun simlar ishonchli ulanishi kerak.

17. Istalgan sxemani ularshdan oldin uni oldindan o'rganish kerak va ayniqsa kuchlanishi 36 V dan yuqori zanjirlarni yaxshi bilishi kerak.

18. Yig'ilgan sxema, elektr apparaturalar va elektr qurilmalarni ta'minlash manbayiga tok hamda kuchlanish bo'yicha muvofiq normalangan eruvchan saqlagichlar orqali ulash kerak.

19. Sxemalar, to'g'rilovchi bloklar va boshqa elektr zanjirlarda kuchlanish bor-yo'qligini kuchlanish ko'rsatkichlari, voltmetrlar yoki maxsus shchuplar yordamida tekshirish zarur.

Kuchlanish bor-yo'qligini uchqun chiqarib yoki ushlab ko'rib tekshirish qat'iyan man etiladi.

20. Baxtsiz hodisalar yuz bermasligi uchun ish jarayonida kavsharlagichni silkitish man etiladi.

21. Ish qisqa muddatga to'xtatilganda yoki biron joyga ketganda sxema va barcha jihozlarni tarmoqdan ajratish zarur.

Ishchi xodimning ish tugagandan keyin bajaradigan vazifalari

22. Ish tugagandan keyin quyidagilarni bajarish zarur:

- a) hamma apparaturani, eksperimental sxemalar, elektrlashtirilgan asboblar elektr tarmoqdan ajratiladi;
- b) jihozlar, materiallar va asboblar yig'ishtirib qo'yiladi;
- c) ish o'rni sanitariya normalariga muvofiq tartibga solinadi.

Uy-ro'zg'or elektr changso'rgichlari va polartkichlarni ta'mirlashda xavfsizlik choralariga oid ko'rsatmalar

1. Elektr changso'rgichlar va polartkichlarni ta'mirlashga shu ixtisos bo'yicha o'qigan va instruksiyani o'rgangan hamda instruktaj olgan shaxslarga ruxsat etiladi.

2. Ta'mirlash ishlarini bajarishdan oldin asbobuskunalar, stendlar, moslamalar, jihozlar va asboblarining buzuq emasligiga ishonch hosil qilish lozim.

3. Elektr changso'rgichlar va polartkichlar tarmoq-dan ajratilgan holda ta'mirlanishi kerak.

Kollektor yoki yakorning darz ketishiga yo'l qo'y-maslik uchun elektr dvigatelni to'la nominal kuchlanishga yuklamasiz (salt) ulash man etiladi.

4. Dvigatel tarmoqqa ulangandan keyin uning tok o'tadigan qismlariga tegish man etiladi.

5. Elektr dvigatelni qismlarga ajratishda xalaqitlarni so'ndiruvchi qurilmaning kondensatorlarini zaryadsiz-lantirish lozim.

6. Ventilyator qurilmasi ochiq bo'lgan elektr dvigatelni tekshirishga yo'l qo'yilmaydi.

7. Changso'rgichlar va polartkichlarning konstruksi-yasi shunday tuzilganki, uning tok o'tadigan va aylana-digan qismlariga tasodifan tegib ketish ehtimoli yo'q.

Changso'rgich yoki polartkichni tekshirishda ular-ning ichki qismlariga tok o'tkazadigan predmetlar bilan tegish mumkin emas.

Uy-ro'zg'or kir yuvish mashinalarini ta'mirlashda xavfsizlik choralar haqida ko'rsatmalar

1. Kir yuvish mashinalarini shu ixtisos bo'yicha o'qigan va instruksiyani o'rgangan hamda instruktaj ol-gan shaxslargagina ta'mirlashga ruxsat etiladi.

2. Ta'mirlash ishlarini bajarishdan oldin asbob-uskunalar, stendlar, moslamalar, jihozlar va asboblarning buzuq emasligiga ishonch hosil qilish lozim.

3. Ish o'rmini shunday tashkil etish kerakki, har qan-day baxtsiz hodisaning vujudga kelish ehtimoli bo'lmasin.

4. Kir yuvish mashinalarini ta'mirlashga oid barcha asbob-uskunalar, stendlar, kontrol-o'lchash apparatu-

ralari mustahkam poydevorlar yoki asoslarda o‘rnatalishi, shay bo‘lishi, sinchiklab tekshirilishi va mahkamlab qo‘yilishi kerak.

5. Asbob-uskunalar, stendlar, kontrol-o‘lhash jihozlarining barcha tok o‘tadigan qismlariga tasodifan qo‘l tegib ketmaydigan bo‘lsin.

6. Ta’mirlashdan oldin kir yuvish mashinasi tarmoqdan ajratilishi kerak.

7. Ta’mirlashdan keyin mashinani ishlatib ko‘rishda:

a) mashinani to‘ntarilgan yoki qiyalatib qo‘yilgan holatda tarmoqqa ulash;

b) yuvuvchi eritma yoki suvni elektr asbob-uskunala larga tushishiga yo‘l qo‘yish;

d) aktivator aylanayotganda qo‘lni kir yuvish bakiga tiqish;

e) sentrifuga rotori to‘la to‘xtamaguncha qopqoqni ochish qat’ian man etiladi.

8. Mashina uzellarini tozalash va moylashga bog‘liq bo‘lgan ishlar mashina tarmoqdan ajratilgandan keyingina bajarilishi kerak.

9. Avtomatik kir yuvish mashinalarini ixtisoslashtirilgan tashkilotlar quvvati 1,3 dan 4 kW gacha bo‘lgan uy-ro‘zg‘or elektr mashinalari va jihozlarini davlat uyjoy fondi va UJQK (uy-joy qurilish kooperativi) uylarida o‘rnatish hamda tarmoqqa ulash bo‘yicha muvaqqat qoidalarga amal qilgan holda o‘rnatadi va tarmoqqa ulaydi.

10. Avtomatik kir yuvish mashinalarini amaldagi normalarga muvofiq maxsus elektr simlar bilan jihozlangan, tarmoq kuchlanishi 220 V bo‘lgan turar joy binolarida ishlatishga ruxsat etiladi.

11. Maxsus simlar bilan jihozlanmagan uylarda yong'in va elektr jihatdan xavfsizlikni ta'minlash maqsadi da avtomatik kir yuvish mashinalaridan foydalanish uchun qo'shimcha liniya yotqizilishi va 220 V kuchlanishda 20–25 A tokka mo'ljallangan yerga ulash kontakti bor shtepsel rozetkasi o'rnatilishi kerak.

12. Eruvchan quyma yoki avtomatik viklyuchatellar ajratkichning nominal toklari avtomatik kir yuvish mashinasini ta'minlash gruppalari uchun 220 V kuchlanishda 20 A tokka o'rnatilishi kerak.

13. Yerga ulanmagan avtomatik kir yuvish mashinasini ishlatish qilish qat'iyan man etiladi.

14. Avtomatik kir yuvish mashinasi tarmoqqa ulanadigan va ishlaydigan joyi maxsus jihozlangan bo'lishi kerak: shtepselli rozetka ajratkichi o'rnatilgan va yerga ulangan bo'lishi; suv quyiladigan shlanglarni ulash uchun vodoprovod kranlari moslangan bo'lishi; mag'zava to'kiladigan kanalizatsiya qurilmasi poldan ko'pi bilan I m balandlikda turishi kerak.

15. Ish tugamaguncha mashina qopqog'ini ochish man etiladi. Mashina qopqog'ini ochish talab qilinadigan barcha ishlar (kukun solish, yuviladigan kiyimni joylash, mashinani tozalash hamda ta'mirlash va hokazo) mashina tok manbayidan to'liq ajratilgandan so'ng bajarilishi lozim.

16. Mashinaning ishlashidan oldin barabanning qopqog'i to'g'ri yopilganligi tekshiriladi, buning uchun qulf knopkasini bosmasdan turib richagni tortib ko'rish kerak.

17. Transportda tashishda qo'llaniladigan himoya moslamalarini olmasdan turib mashinani ishlatish man etiladi.

Sovitkichlarni ta'mirlashda xavfsizlik choralar haqida ko'rsatmalar

1. Sovitkichni ko'zdan kechirish va ta'mirlashga xavfsizlik texnikasi talablari bilan tanish bo'lgan, elektr montaj ishlarini bajarishda zarur bo'lgan bilim va malakaga ega mexaniklargagina ruxsat etiladi.

2. Sovitkichni tekshirayotgan va buzuq joylarini tuzatayotgan paytda sovitkichning elektr zanjirlarini tekshirishda va o'lchov jihozlarini ularashda elektr toki bilan shikastlanishning oldini olish uchun tegishli ehtiyoj choralarini ko'rish kerak.

3. Sovitkichning elektr asbob-uskunalardagi buzuq joylarini bartaraf qilishda uni tarmoqdan ajratish (vilkani tarmoq rozetkasidan chiqarish kerak. Tarmoqqa ulangan sovitkichni zarur hollardagina (masalan, motor kompressorni ishga tushirish va shunga o'xhash hol-ladir) tekshirish yoki ta'mirlash lozim.

Termoregulator uzoq muddatga olib qo'yilganda simlarning ochiq uchi elektr toki bilan jarohatlanishning oldini olish uchun yaxshilab izolatsiya qilinishi kerak.

Zanjirlarda kuchlanish bor-yo'qligi kuchlanish indikator yoki ko'chma elektr lampa yordamida tekshirilsin.

Rezina qopqoqlar va dastasi izolatsiyalangan montyor asboblari tokdan jarohatlanishdan saqlanish uchun izolatsiyalovchi himoya vositalari bo'lib xizmat qiladi.

ILOVALAR

1. Sovitkichlarning shkafi va eshigini issiqlikdan izolatsiya qilish uchun ishlataladigan mineral namat tavsifi

Mineral namat mineral paxtadan uni sintetik smolalarning eritmalarida qayta ishlash yo'li bilan tayyorlanadi. Mineral jinslar (dolomit, dolomit-loyli mergel), shuningdek, metallurgiya shlaklari mineral paxta olish uchun asosiy xom ashyo bo'lib xizmat qiladi.

Shisha namat sun'iy mineral namatning boshqacha ko'rinishi hisoblanadi. U qalinligi 10–12 μm bo'lgan ingichka o'zaro sintetik smolalar vositasida bog'langan kalta shisha iplardan iborat. Shisha namatdan qilingan issiqlik izolatsiya bioturg'un, hidi bo'lmaydi, suv yuqtirmaydigan xususiyatga ega, uni yotqizish qulay bo'ladi va shuning uchun keng ko'lamda ishlataladi.

Penopolistirol issiqliidan izolatsiyalovchi sintetik material hisoblanadi. U qattiq g'ovaklari gaz bilan to'ldirilgan yengil plast-massadan iborat bo'lib, berk g'ovaklari bir tekisda tarqalgan. Suyuq polistirolni ko'prtirib penopolistirolidan issiqlik izolatsiyalovchi material olinadi.

Penopoliuretan – mayda g'ovakli bikr strukturali penoplast-lardir. U tegishli katalizatorlar va emulgatorlarni ishlatib poliuretanli smolalar ni oshirish yo'li bilan olinadi.

2. Sovitkichlarning tepkili, sektorli va magnitli eshik zatvorlari

Tepkili zatvorlarda qutlovchi qism sifatida ochish tugmachasining richagiga mahkamlangan rolik xizmat qiladi. Eshik ochilganda va yopilganda rolikli richag tashlama prujina ta'siri ostida siljiydi. Prujina ochish tugmachasining richagini ochiq holatda ham, yopiq holatda ham mahkamlab qo'yadi. Sovitkichning eshigi ochilganda va yopilganda richag prujinani bir chekka holatdan boshqa holatga ko'chiradi, richag esa roliklardan yopiq yoki ochiq holatga siljitaladi.

Sektorli zatvor eshikka bikr mahkamlangan dastani eshikning zatvorga ta'sir qilmasdan ochilishiga imkon beradi. Tashlama

prujina eshik ochilganda va yopilganda richag orqali qulflash sektorini ko'chiradi. Qulflash richaglari, odatda, shkafda mahkamlangan sobachka bilan tishlashadi. Sobachkaning holatini rostlash, ya'ni uning puxta tishlashishini ta'minlash uchun sobachkani siljitim mumkin.

Magnitli zatvorlar sovitkichlarda zichlama shkafga magnitning tortish kuchi ta'siridan tortiladi, bunda zichlama profili cho'ziladi.

Magnitli zatvorlar eshik ichki panelining zichlovchi profiliga joylashtirilgan magnitli quymadan iborat. Eshik yopilayotganda zichlama metall korpusga zich tortiladi. Bariy ferrit BaO ning kauchuk yoki polixlorvinil va boshqa smolalar bilan aralashmasi magnitli materiallar olish uchun dastlabki xom ashyo bo'lib xizmat qiladi. Elastik magnitdan tayyorlangan lentalar magnit maydonda magnitlanadi. Magnitlangan lentalar $0,11\text{--}0,12$ T qoldiq magnit induksiyaga ega bo'ladi.

3. Sovitkichlardagi aluminiy bug'latkichlari va kapillar naychalari

Hozirgi vaqtida prokatka qilib payvandlash metodi bilan tayyorlangan aluminiy bug'latkichlar ishlatilmoqda. АД yoki АД-1 markali ikkita aluminiy listning biriktiriladigan yuzalari oksid pardadan yaxshilab tozalanadi. Aluminiy listlardan birida aluminiiyning payvandlanishiga to'sqinlik qiladigan maxsus eritma bilan trafaret bo'yicha kanallar rasmi chiziladi. So'ngra bir-birining ustiga qo'yilgan listlar valiklar orasida prokatka qilinadi. Bunda hosil bo-ladigan katta solishtirma bosim eritma bilan belgilangan joylardan boshqa bir-biriga tegib turgan barcha yuza bo'yicha listlarning kontakt usulda payvandlanishini ta'minlaydi. Payvandlangandan so'ng kanallar katta bosim ostida opravkalar ichida suyuqlik bilan shishiriladi.

Bug'latkichlar kanallarining konfiguratsiyasi turlicha bo'lishi, shuningdek, sovituvchi kamerada mahkamlanish usuliga qarab bir-biridan farq qilishi mumkin.

Ayrim sovituvchi agregatlarda bug'latkichlar quyidagilar bilan farqlanadi: ularning kanallar sistemasi kapillar va so'rish naychalarini birlashtirish uchun mo'ljallangan ikkita chiqish teshigi

o‘rniga faqat bitta teshikka ega bo‘ladi. Bunday agregatlarda kapillar naycha so‘rish naychasing ichidan o‘tadi. So‘rish naychasing uchi bug‘latkich chiqish kanalining chetiga payvandlanadi, kapillar naycha esa bu kanaldan o‘tib kirish kanaliga keladi va sovituvchi agent kirish kanalidan chiqish kanaliga o‘tmasligi uchun kapillar naycha qisib qo‘yiladi.

4. Mineral adsorbentlar – seolitlar haqida

Seolitlar minerallar sifatida 200 yil burun topilgan edi. Mineral stilbit qizdirilganda shishishi aniqlangan edi. Bu mineral seolit (grekchasi «qaynar tosh») deb ataladi. Hozirgi vaqtida tabiiy seolitning o‘ttizdan ortig‘i ma’lum. Tabiiy seolitlarning nisbatan kam tarqalganligi va konlarning bir-biridan juda uzoqda joylashishi ulardan sanoat mashtablarida foydalanishni so‘nggi vaqtgacha qiyinlashtirgan edi. Shu bilan bir vaqtida seolitlarning geometrik o‘lchamlariga qarab (kritik diametr va molekulaning uzunligi) bitta modda molekulalarini yutishi va boshqa molekulalarni yutmasligi kabi noyob xususiyati taddiqotchilar oldiga tabiiy seolitlarning sintetik analoglarini yaratish masalasini qo‘ydi. Seolitlar adsorbsiyasining selektivligigacha qat’iy aniq o‘lchamli yupqa g‘ovaklarning mavjudligi sabab bo‘ldi, shuning uchun seolitlarni ko‘pincha «molekula elaklari» deb ataydilar.

Adsorbentlar freonli sovitish mashinalarining ish muhitini nam va kislotadan tozalash uchun ishlataladi. Filtr quritkichlar adsorbentlar bilan to‘lg‘aziladi.

Yangi mineral adsorbentlar – seolitlar texnikada keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda.

5. Sovitkichlarni ko‘zdan kechirish va ta’mirlashdan oldin quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

- elektr tarmoqdagi kuchlanishning o‘zgarishi va kechki paytda kuchlanishning pasayishi ehtimoli borligi;
- kondensatorning sovitilish sharoitlari va sovitkich yaqinida isituvchi manbaning yo‘qligi;

- bug'latkichdagi qor qatlaming qalnligi va sovitkich ichidagi qorni eritish, hamda uni tozalash davriyligi;
- ichki shkafga qo'yiladigan oziq-ovqat miqdori, ularning joylashishi, suyuqliklarni saqlash va hokazolar;
- sovitkichning temperatura ishlash sharoitlari va uning xonada o'rnatilgan joyi;
- ulovchi shnurning vilkasi bilan elektr tarmog'inining shtepsel rozetkasi orasidagi kontaktning ishonchliligi;
- sovitkichning vertikal, turg'un vaziyati.

Sovitkichning biron taqlovi noto'g'ri ishlash sharoitlari (zavod yo'riqnomasi talablariga javob bermaydigan) payqab qolinsa, buzuq joyning bo'lish-bo'lmasligidan qat'iy nazar, ularni bartaraf qilish lozim.

Shundan keyin:

- temperatura datchik-relesi, ishga tushirish himoya relesi va zapravka qilish naychasiga zavodda qo'yilgan plombaning butligiga ishonch hosil qilish zarur;
- sovitkichning tashqarisi ko'zdan kechiriladi, bunda yon panellar yuzasining, eshikning, stolchaning mahkamlanishi, eshik dastasi, eshik ilmoqlarining holati tekshiriladi; zarur bo'lganda sovitkich devordan nariga suriladi va kompressor osmasi sovituvchi agregatning mahkamlanishi, truboprovodlarning joylashishi va ishga tushirish himoya relesining mahkamlanishi tekshiriladi; sovitkichning ichki shkafi ko'zdan kechiriladi; buncha ichki shkaf va eshik panelining holati, eshik zichlamasi, bug'latkichning holati, temperatura datchik relesining mahkamlanishi, naycha va uning silfonlarining bug'latkichga mahkamlanishi, chiqishlarining temperatura datchik relesi kontaktlariga ulanishi (sovitkich elektr tarmog'idan ajratilgan bo'lishi kerak) tekshiriladi; olib qo'yiladigan tokchalar va idishlarning holati hamda o'rnatilishi tekshiriladi.

Sovituvchi agregat va elektr uskunalarining asosiy buzuqliklari va ularni bartaraf qilishga oid tavsiyalar:

Elektr simlarning shikastlanishi. Elektr tokining sovitkich korpusiga tutashishi, simlarning uzilishi, kontaktning yomon bo'lishi oqibatida elektr simining ayrim joylarida uchqun chiqishi bu buzuqliklarning alomatlari hisoblanadi.

Dastlab elektr simini ko'zdan kechirib shikastlangan joyni aniqlash lozim, bunda ayniqsa, simning avtomatika priborlariga ulangan joyini va sim sovitkichga ulangan joylarni sinchiklab ko'zdan kechirish zarur. Agar shikastlangan joylarni ko'z bilan kuzatib aniqlab bo'lmasa, elektr zanjirning har bir uchastkasida izolatsiya qarshiligini ketma-ket tekshirish lozim.

Elektr izolatsiyasi orqali korpusga tok o'tayotgan joyni faqat sovitkich vilkasi tarmoq shtepsel rozetkasidan chiqarilgandan keyin qidirish mumkin.

Tok o'tayotgan joyni aniqlash uchun megometr dan (500 V) foydalaniлади.

Sovitkichning elektr zanjirini tekshirish uchun megometrning «Земля» («Yer») qisqichidagi simni sovitkich korpusiga ulash kerak. Buning uchun shkaf yoki sovituvchi agregat korpusidagi bironta vintdan foydalanish va kontakt yaxshi bo'lishi uchun oldindan bu joy bo'yog'ini tozalash kerak. Megometring «Линия» qisqichidagi sim sovitkichning tekshirilayotgan simiga ulanadi.

Dastlab sovitkich elektr zanjiri izolatsiyasining qarshiligini, so'ngra kerakli simlarni birin-ketin ajratib alohida uchastkalar qarshiligini o'lhash lozim. Sovitkichning butun elektr zanjiri tekshirilganda «Линия» qisqichidagi sim sovitkich shtepsel vilkasining har qaysi shiriga navbatma-navbat ulanadi. Bunda temperatura datchik-relesining dastasi oldindan ish holatiga o'rnatilishi kerak. Elektr simi izolatsiyasining qarshiliqi $10\text{ M}\Omega$ dan past bo'lgan uchastkasi aniqlansa, izolatsiya teshilgan joyni aniqlash zarur yoki simni almashtirish kerak. Elektr simining shikastlangan joyiga qo'l etishi uchun zarur bo'lganda, sovitkich qisman qismlarga ajratiladi.

Temperatura datchik-relesi yoki boshqa elektr apparatura ishga tushirish-himoya relesidan, viklyuchatelda, elektr patron izolatsiyasida teshilgan joy aniqlansa, kaiinchiligi bor uzel yangisiga almashtiriladi.

Motor chulg'amlarining izolatsiyasi teshilsa sovituvchi agregat almashtirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov A.S. Nazariy elektrotexnika. «UAJBNT» markazi, 2003.
2. Raximov G.R. Elektrotexnika. – T., «O'qituvchi», 1966 .
3. Majidov S.M. Elektrotexnikadan ruscha-o'zbekcha luqat-ma'lumotnoma. – T., «O'zbekiston», 1999.
4. Lepayev D.A. Uy-ro'zg'or elektr jihozlarining tuzilishi va remonti. – T., «O'qituvchi», 1997.
5. Vitelevskiy A.N. Umumiy ovqatlanish koxnalarining issiqlik jihozlari. – T., «O'qituvchi», 1968.
6. Гордухин А.И. Газовые сети и установки. – М., «Издательство литературы по строительству», 1967.
7. Богдасаров В.А. Техника безопасности и организация работ в городском газовом хозяйстве. – Л., «Недра», 1979.
8. Нечаев М.А., Столкнир Е.Б. Технический надзор и техника безопасности в газовом хозяйстве. – М., «Издательство литературы по строительству», 1970.
9. Нечаев М.А., Иссерлин А.С., Мулодок Б.И., Плотникова А.Н. Справочник работника газового хозяйства. – Л., «Недра», 1973.
10. Дунаева Г.И., Беляев Т.А. Лабораторный практикум по технологии санитарно-технических работ. – М., «Высшая школа», 1987.
11. Варшавский А.С. и др. Бытовые нагревательные электроприборы (конструкции, расчеты, испытания). – М., 1981.

MUNDARIJA

Kirish	3
1- mavzu. Uy-ro'zg'or elektr jihozlarini ta'mirlash ishlarini tashkil qilish	9
2- mavzu. Changso'rgichlarni ta'mirlash va ta'mirlash sifatini nazorat qilish	12
3- mavzu. CMA tipidagi kir yuvish mashinalari	17
4- mavzu. Kir yuvish mashinalarini ta'mirlash uchun kerak bo'ladigan asboblar, moslamalar va uskunalar	35
5- mavzu. Uy-ro'zg'or sovitkichlarini ta'mirlash uchun asbob-uskunalar	41
6- mavzu. Zamonaviy sovitkichlarni ta'mirlash va ishlatish	50
7- mavzu. Mikroprotsessорlar va uy-ro'zg'or texnikasini ishlatish	54
8- mavzu. Uy-ro'zqor elektr jihozlari va mashinalarining shovqin darajasini o'lchash	55
9- mavzu. Mikroto'lqinli pechlarning ishlashi	61
10- mavzu. Uy-ro'zg'or elektr jihozlari va mashinalarini ta'mirlashda mehnat xavfsizligi qoidalari	63
Ilovalar	73
Foydalilanilgan adabiyotlar	78

31.293-5

A15

Abdullayev B.A.

Uy-ro'zg'or elektr jihozlarini ta'mirlash: Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma/B.A. Abdullayev, O.M. Burxonxo'jayev, X.E. Xolbo'tayeva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. — T.: «Voris-nashriyot» MChJ, 2007. — 80 b. — ISBN 978-9943-304-19-2

I. Burxonxo'jayev O.M.

Xo'lbo'tayeva X.E.

ББК 31.293-5я722

**ABDULLAYEV BAXTIYOR,
BURXONXO'JAYEV OBID MURODOVICH,
XOLBO'TAYEVA XOLJON ESHNIYOZOVNA**

UY-RO'ZG'OR ELEKTR JIHOZLARINI TA'MIRLASH

*Kasb-hunar kollejlari talabalari
uchun o'quv qo'llanma*

*«Voris-nashriyot» MChJ
Toshkent—2007*

Muharrir *M. Po'latov*
Badiiy muharrir *Sh. Rahimgoriyev*
Kompyuterda sahifalovchi *M. To'xtaxo'jayeva*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 15.06.07. Bichimi 84x108¹/32.

Kegli 11 shponli. Tayms garn. Ofset bosma usulida bosildi.
Bosma t. 5,0. Nashr t. 3,56. Sharqli b. t. 4,65. 2744 nusxada bosildi.
Buyurtma № 204.

«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida bosildi.
100113, Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

«Voris-nashriyot» MChJ, Toshkent, Shiroq ko'chasi, 100.